2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 237 (1026), 2023-yil 15-noyabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

dunyoni tinchlik va taraqqiyot sari birlashishga da’vat etmoqda

Keyingi yillarda dunyoni kutilmagan tahdidlar, ziddiyatli munosabatlar, ekologik oqibatlar, geosiyosiy qarama-qarshiliklar va o‘zaro ishonchsizlik inqirozi tashvishga solmoqda. Bunday murakkab davrda milliy davlatchilik, hududiy va mintaqaviy xavfsizlik masalalari ham tobora jiddiylashib boraveradi. Shu ma’noda, bugun davlatlar va siyosiy yetakchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda anglashinuv, bag‘rikenglik, hamjihatlik va ishonch muhitining qaror topishi naqadar zarurligi kunday ayon.

Shunday bir qaltis vaziyatda O‘zbekiston bugun o‘z bag‘riga taraqqiyparvar mamlakatlarni chorlayotgan xalqaro muloqot maydoniga aylandi, davlatimiz rahbari nafaqat mintaqa, balki dunyo xalqlarini o‘ylantirayotgan o‘tkir muammolarni dadil ko‘tarib, ularning oqilona yechimlari xususida ilg‘or tashabbuslarni ilgari surayotgan faol yetakchilardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda ko‘plab nufuzli, istiqbolli tuzilmalar, jumladan, SHHT, TDT, IHT, MDH davlat rahbarlari yig‘ilishlari hamda BMT doirasidagi tashkilotlar sammitlari yurtimizda muvaffaqiyatli o‘tayotgani xalqaro maydonda ham e’tirof etilmoqda.

O‘tgan haftada Toshkent yana bir nufuzli tuzilma — Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammitiga mezbonlik qildi. Prezidentimiz raisligida “Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari” shiori ostida bo‘lib o‘tgan sammitda tashkilotga a’zo davlatlar rahbarlari bildirgan fikrlar, ilgari surilgan takliflarda o‘ziga xos yakdillikni kuzatish mumkin. Bu, albatta, kun tartibidagi masalalar ishtirokchi mamlakatlar uchun birdek dolzarb ekanini anglatadi.

Jumladan, Shavkat Mirziyoyev a’zo davlatlar o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlikni kengaytirish uchun hali ishga solinmagan katta imkoniyatlar, salohiyat mavjudligini ta’kidladi. Mazkur tuzilmaga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi savdo ko‘rsatkichi 85 milliard dollar bo‘lib, bu ular umumiy tashqi savdosining atigi 8 foizini tashkil etayotganiga urg‘u berildi. Imtiyozli savdo bitimini tuzish bo‘yicha ko‘p yillik urinishlar kutilgan samarani bermayotgani, to‘siqsiz savdoni shakllantirish yo‘lida hali-hamon ko‘plab cheklov va muammolar saqlanib qolayotgani aytib o‘tildi.

Davomi 2-betda

SHARH

IHTning TRANSPORT-LOGISTIKA SALOHIYATI

UNDAN SAMARALI FOYDALANISH XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRADI

“Tarixi, dini, urf-odat va an’analari yaqin bo‘lgan birodar xalqlarimiz azaldan savdo-sotiq aloqalari va madaniy rishtalar bilan chambarchas bog‘langan. Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti o‘tgan davr mobaynida ulkan iqtisodiy salohiyatga ega yirik mintaqaviy tuzilmaga aylandi”.

Davlatimiz rahbari bundan ikki yil oldin IHTning Turkmanistonda bo‘lib o‘tgan sammitida tuzilma faoliyatiga shunday yuqori baho bergan edi. Chunki ayni kunda tashkilotga a’zo davlatlar aholisi soni yarim milliarddan ortiq, YIM hajmi esa qariyb 2 trillion dollarni tashkil etadi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlarining O‘zbekiston mezbonligida 8-9-noyabr kunlari bo‘lib o‘tgan 16-sammitida ham ko‘p qirrali hamkorlik istiqbollari, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Global inqirozga qaramay, IHT a’zo davlatlar iqtisodiyotlari barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etayotgani ta’kidlandi. O‘zbekistonda so‘nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 1,5 barobar ko‘paydi. 2030-yilga qadar ushbu iqtisodiy ko‘rsatkichni yana ikki barobar oshirish rejalashtirilyapti. Bunga, avvalo, “yashil” iqtisodiyot va zamonaviy infratuzilmani barpo etish, xususiy sektorni rag‘batlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish hisobidan erishish ko‘zda tutilmoqda.

Davomi 4-betda

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING 75 YILLIGIGA

FAROVONLIK VA YUKSALISH ASOSI

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi insonning shaxsiy va siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq hamda erkinliklari ko‘lamini o‘zida to‘la mujassam etgan dastlabki xalqaro huquqiy hujjat hisoblanadi. 30 moddadan iborat ushbu hujjatda alohida madaniyat, millat va mintaqalar bilan cheklanmagan universal qadriyatlar mustahkamlangan.

BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasiga muvofiq, 1948-yil 10-dekabrda ushbu hujjatning qabul qilinishi xalqaro munosabatlar rivojida muhim tarixiy bosqich bo‘ldi. Shu ma’noda, 1950-yilda BMT tomonidan 10-dekabrni Xalqaro inson huquqlari kuni sifatida keng nishonlash belgilangan. U hozirgi kunda 535 dan ortiq tilga tarjima qilingan.

Davomi 2-betda

NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATIGA 65 YIL

FIDOYILIK VA JASORAT TARIXI

Navoiy kon-metallurgiya kombinati jahondagi oltin ishlab chiqaruvchi eng yirik kompaniyalardan biri. Bunday maqom va nufuzga sohaga qaratilayotgan katta e’tibor, yaratilayotgan imkoniyatlar hamda korxonada faoliyat yuritayotgan malakali muhandis va tajribali mutaxassislarning fidokorona mehnati tufayli erishilmoqda. Buning natijasida Qizilqum sahrosida rivojlangan ishlab chiqarish, transport va ijtimoiy infratuzilmani o‘zida mujassam etgan zamonaviy kon-metallurgiya majmuasi vujudga keldi. Ayni kunlarda korxona tashkil etilganligining 65 yilligi keng nishonlanmoqda.

Davomi 3-betda

JARAYON

BIOTEXNOLOGIYA RIVOJI

gen muhandisligidan dorivor o‘simliklar materialigacha

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 80 yilligini nishonlash arafasidamiz. O‘zbek ilm-fan tadqiqotlari va rivoji yo‘lidagi bu muddatda Fanlar akademiyasi turli evrilishlarni boshdan kechirdi. O‘tgan vaqtda ilm-fanda erishilgan yutuqlarda ko‘plab ilmiy-tadqiqot institutlari qatori Genomika va bioinformatika markazining ham alohida o‘rni bor.

Biotexnologiya bugun dunyodagi eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biridir. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 25-noyabrdagi “Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori soha rivojida yangi davrni boshlab berdi. O‘zbekistonda biotexnologiya va gen muhandisligi qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi navlarini yaratishda asosiy vositaga aylandi. Bugungi kunda g‘o‘zaning “Porloq”, “Ravnaq”, “Baraka”, “Tafakkur”, “Saxovat” kabi qator navlarini yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyatga ega.

Davomi 5-betda

TA’LIM

“FAN BOG‘INING BOG‘BONISIZ, CHAROG‘BONSIZ KO‘NGILGA”

Shahrisabz davlat pedagogika instituti faoliyat boshlaganiga ham to‘rt yildan oshdi. Mazkur oliygoh 2019-yil sentabr oyidan filial sifatida ish boshlagan edi. Ilk o‘quv yilidan maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ishlari, xorijiy tillar, ona tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti kabi yo‘nalishlarda talabalar qabul qilinib, dars jarayonlari boshlab yuborilgandi.

Davomi 5-betda

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

dunyoni tinchlik va taraqqiyot sari birlashishga da’vat etmoqda

Tanzila NORBOYEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi

Boshlanishi 1-betda

“Milliy parlamentimiz o‘z faoliyatida tashqi aloqalarni har tomonlama rivojlantirish, parlamentda gender tenglik masalalariga e’tibor qaratish, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning bosh prinsipi – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish yo‘lida, shuningdek, “Inson qadri va manfaatlari uchun” ezgu g‘oyasi asosida demokratiya va adolat tamoyillarini ta’minlashga faol kirishgan.

Prezidentimiz IHT doirasidagi hamkorlikka yangi sur’at bag‘ishlash maqsadida “Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari — 2035” konseptual hujjatini ishlab chiqish taklifini ilgari surdi. Ushbu muhim hujjatda o‘zaro savdoni rag‘batlantirish, transport-kommunikatsiyaviy bog‘liqlikni kuchaytirish, sanoat kooperatsiyasini faollashtirish, energetika xavfsizligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, turizm va madaniy-gumanitar almashinuv sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish kabi asosiy yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozimligi alohida ta’kidlandi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari sammit kun tartibidagi qator muhim masalalar yuzasidan amaliy takliflar bildirib, ularning muhokamasi uchun O‘zbekiston qulay va foydali maydon vazifasini bajarishga tayyor ekanini ma’lum qildi.

Xususan, o‘zaro investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, ularni himoya qilish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar dasturini ishlab chiqish hamda hududlararo sanoat ko‘rgazmasini tashkil etib, uning dastlabki tadbirini 2024-yilda yurtimizda o‘tkazish muhimligi qayd etildi.

Iqlim bilan bog‘liq xatarlar tobora ortib borayotgan bir davrda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida samarali hamkorlikni kuchaytirish maqsadida 2024-yilda bo‘lajak Samarqand iqlim forumi doirasida Ekologiya masalalari bo‘yicha yuqori darajali platformaning birinchi anjumanini o‘tkazish taklif qilindi.

IHT kotibiyati huzurida a’zo mamlakatlarning turizm ma’muriyatlari va yetakchi ekspertlardan iborat Turizm bo‘yicha maslahat qo‘mitasini tashkil etish hamda uning ilk uchrashuvini tashkilotning turizm poytaxti deb e’lon qilingan Shahrisabz shahrida o‘tkazish taklifi ilgari surildi.

Albatta, bunday tashabbuslarni dunyoni yaxlit ko‘radigan, uning har qanday nuqtasidagi og‘riqni o‘zinikidek qabul qiladigan, inson qadrini eng yuksak qadriyat sifatida biladigan shaxs o‘z qo‘liga oladi. Prezidentimizning turli xalqaro tuzilmalar minbaridan turib, dadil ilgari surayotgan konstruktiv g‘oya va loyihalari jahon hamjamiyati tomonidan ma’qullanib, jahonda, ayniqsa, mintaqamizda barqaror rivojlanish, tinchlik-osoyishtalikni ta’minlashga katta hissa qo‘shayotgani zamirida ham aynan shu haqiqat mujassam.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida siyosiy doira yetakchilari e’tiborini xalqaro munosabatlar tizimida fundamental o‘zgarishlar yuz berayotgani, jahon miqyosida ishonch inqirozi kuzatilayotgani, global xavfsizlik institutlari faoliyatidagi muammolar va xalqaro huquq me’yorlaridan chekinish kuchayayotgani va bularning barchasi keng ko‘lamdagi keskinlik ortishiga sabab bo‘layotganiga qaratdi.

Bunday murakkab sharoitda davlatlar qanday yo‘l tutmog‘i kerak?

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida bu savolga aniq javob berdi. Avvalo, amaliy hamjihatlik va hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarni tor doiradagi manfaatlardan yuqori qo‘ygan holda mamlakatlarni jipslashtirish g‘oyasini kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Jumladan, Prezidentimiz BMT minbarida turib “Aminmanki, xalqaro hamjamiyatning qo‘llovi bilan Markaziy Osiyo birdamlik yo‘lidan borishda davom etadi. Markaziy Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish O‘zbekiston tashqi siyosatida bundan buyon ham ustuvor maqsad bo‘lib qoladi”, deya ishonch bilan ta’kidladi. Ha, bugun amaliy hamjihatlik, birdamlik va hamkorlik ruhi har qachongidan-da muhim ahamiyat kasb etib borayotgan bir davrda Markaziy Osiyo davlatlari yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik, o‘zaro hamkorlik va rivojlanish yo‘lidan borayotgani e’tiborlidir.

Albatta, tillari, dillari bir-biriga yaqin xalqlar azaldan, xoh u xususiy, xoh u umumiy bo‘lsin, har qanday masalaga donolarcha yechim topa olgan. Prezidentimizning qat’iy siyosiy irodasi, bugungi kunda tobora taqchillashib borayotgan millatlararo muloqotni saqlab qolish, uni mustahkamlashga qaratilgan katta sa’y-harakatlari bilan mamlakatimizning Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo bo‘lgani zamirida ham biz shu haqiqatni ko‘ramiz. Qolaversa, avval kengash sifatida faoliyat ko‘rsatib kelgan ushbu xalqaro tuzilma tarkibiga ulkan nufuzga ega, dunyo sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo‘lgan O‘zbekistonning qo‘shilishi uning to‘laqonli tashkilotga aylanishida muhim o‘rin tutganini siyosatchilar, ekspertlar alohida ta’kidlamoqda.

Shavkat Mirziyoyevning barcha a’zo davlatlar bilan ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytirish, strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari mazkur tashkilotning xalqaro nufuzini, global miqyosda ta’sirini oshirishga, azaldan do‘st va qardosh bo‘lgan turkiy xalqlarimiz farovonligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlarining yaqinda Qozog‘istonning Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdagi kengashida Prezidentimiz “Turkiy dunyoning oliy ordeni” bilan mukofotlandi. Albatta, davlatlar o‘rtasida o‘zaro raqobat tobora kuchayib, dunyo hamjamiyatida o‘z munosib o‘rnini saqlab qolish uchun kurash jarayoni keskin tus olayotgan bir davrda xalqaro doirada erishilgan bunday e’tirofni mamlakatimiz yetakchisiga berilgan yuksak baho deb bilamiz.

Yurtimizning MDHga a’zo davlatlar bilan ham savdo-iqtisodiy va gumanitar aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Keyingi bir necha yilda O‘zbekistonning tuzilma ishidagi ishtiroki faollashdi. Ushbu davrda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ko‘plab muhim yo‘nalishlar yuzasidan ilgari surilgan tashabbuslarning aksariyati a’zo mamlakatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, ro‘yobga chiqarildi.

Prezidentimiz MDH davlat rahbarlari kengashining yaqinda Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan majlisida do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun tashkilotning oliy mukofoti — MDH faxriy nishoni bilan taqdirlandi. Bu, albatta, O‘zbekistonning mazkur tuzilmada, mintaqada tutgan o‘rni naqadar muhim ekanining yana bir e’tirofidir.

“EkoAvrasya” Yevroosiyo iqtisodiy aloqalar jamg‘armasi boshqaruvi raisi Hikmet Eren “Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ko‘p tomonlama hamkorlikning yangi uzoq muddatli kun tartibini ishlab chiqish maqsadida MDH mamlakatlarining yetakchi tahlil markazlari va ekspertlarining konferensiyasini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi Hamdo‘stlikka a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni birlashtirishga xizmat qilishi shubhasiz”ligini qayd etdi.

Bu kabi xalqaro e’tiroflarni ko‘p keltirish mumkin. Shunisi e’tiborliki, xalqaro hamjamiyat keyingi yillarda O‘zbekiston rahbarining konstruktiv tashqi siyosati tufayli nafaqat Markaziy Osiyoda, balki dunyo davlatlari rahbarlari o‘rtasida qulay siyosiy muhit va ishonch shakllanganini bildirmoqda.

Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining ochiq va do‘stona tashqi siyosati milliy parlamentimizning xalqaro aloqalarini rivojlantirishga ham mustahkam zamin yaratmoqda.

Prezidentimiz xorijiy davlatlarga tashrifi chog‘ida hamda xalqaro minbarlardan turib parlamentlarning xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish, dunyoda tinchlik-xotirjamlik va birdamlikni ta’minlash borasida imkoniyatlari kengligi, ulardan samarali foydalanish zarurligini bot-bot takrorlab keladi.

Xususan, 2021-yil 6-avgust kuni Turkmanistondagi “Avaza” milliy sayyohlik zonasida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchinchi maslahat uchrashuvida parlamentarizmning roli ortib borayotganini hisobga olib, Prezidentimiz Mintaqaviy parlament forumini o‘tkazishni taklif qilgan edi.

Oradan ko‘p o‘tmay, ya’ni 2023-yilning fevral oyida Qozog‘istonning Turkiston shahrida Markaziy Osiyo davlatlarining birinchi parlamentlararo forumi bo‘lib o‘tdi hamda mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi har tomonlama strategik sheriklikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida parlamentlararo aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan Turkiston deklaratsiyasi qabul qilindi. 2024-yilda esa forumga O‘zbekiston mezbonlik qiladi.

So‘nggi yillarda dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, insonparvarlik g‘oyalarini mustahkamlash hamda mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida do‘stona munosabatni kengaytirish kabi yo‘nalishlarda parlamentlararo aloqalarimiz muntazam davom etmoqda.

Jumladan, Parlamentlararo Ittifoq, MDH Parlamentlararo Assambleyasi, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlament Assambleyasi kabi xalqaro tuzilmalar bilan birgalikda qator xalqaro forum va anjumanlar o‘tkazildi. Buxoro shahrida o‘tkazilgan “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo global hamkorlik” hamda Samarqand shahrida keng jamoatchilik va din arboblari ishtirokida tashkil etilgan “Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni ta’minlashda parlamentning roli” kabi yirik xalqaro forumlarni bunga misol qilib keltirish mumkin.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tuzilgan Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqotiga O‘zbekiston ilk raislik qilgan yilda 10 dan ortiq tadbir o‘tkazilib, 8 ta yakuniy hujjat qabul qilindi. Mintaqa ayollarining davlat boshqaruvi, preventiv diplomatiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tadbirkorlik va biznes, madaniyat, ta’lim, fan, san’atda faolligini oshirish, gender tenglik kabi masalalar yuzasidan doimiy ravishda o‘zaro tajriba almashib turamiz.

Xalqaro aloqalarimiz haqida so‘z borganda, o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan 25 ta parlamentlararo guruh va 2 ta komissiya faoliyati yo‘lga qo‘yilganini ham mamnuniyat bilan ta’kidlash o‘rinlidir.

Shuningdek, 2022-yilda Parlamentlararo Ittifoqqa a’zo davlatlar parlamentlari ayol rahbarlarining 14-sammiti ilk bor MDH hududida, aynan yurtimizda muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Bularning barchasi mamlakatimizda parlamentarizmni rivojlantirish, inson huquqlarini ta’minlash hamda jamiyatni demokratlashtirish borasida kechayotgan islohotlar, ularning amaliy natijalari jahon hamjamiyati tomonidan munosib e’tirof etilayotganiga yorqin misol bo‘la oladi.

Prezidentimizning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida parlamentlararo aloqalarni yanada jonlantirish borasida bildirgan tashabbuslari ham e’tiborga molikdir. Bugungi kunda mazkur tashabbuslar ijrosini ta’minlash maqsadida “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilmoqda.

2017-yildan boshlab O‘zbekiston va TurkPA o‘rtasida aloqalar faol kechmoqda. Shundan buyon O‘zbekiston parlament delegatsiyasi assambleyaning qator tadbirlarida faol ishtirok etib keladi.

Bir so‘z bilan aytganda, milliy parlamentimiz o‘z faoliyatida tashqi aloqalarni har tomonlama rivojlantirish, parlamentda gender tenglik masalalariga e’tibor qaratish, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning bosh prinsipi — suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish yo‘lida, shuningdek, “Inson qadri va manfaatlari uchun” ezgu g‘oyasi asosida demokratiya va adolat tamoyillarini ta’minlashga faol kirishgan.

Ha, davlatimiz rahbarining manfaatlarimiz himoyachisi sifatida xalqaro doirada ilgari surayotgan tashabbus va loyihalari progressiv insoniyat tomonidan qizg‘in qabul qilinayotgani, mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida munosib o‘rnini tobora mustahkamlab borayotgani xalqimizning qaddini baland ko‘tarib, faxr-g‘urur tuyg‘ularini yuksaltirmoqda.

Bu, o‘z navbatida, barchamizni xalqimiz, el-yurt manfaatini ta’minlashdek ulug‘ maqsadlar yo‘lida birlashishimiz, mas’uliyatimizni yanada oshirishni talab etadi.

Shubhasiz, bularning barchasi nafaqat mamlakatimizning ichki taraqqiyotiga, balki uning dunyo miqyosidagi obro‘si ortishiga, barcha uchun ochiq hamda o‘zaro teng manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘lgan jozibador o‘lkaga aylanishiga xizmat qilmoqda.

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING 75 YILLIGIGA

FAROVONLIK VA YUKSALISH ASOSI

Hamidulla MO‘MINOV,
Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi mas’ul xodimi

Boshlanishi 1-betda

“Joriy yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligi keng nishonlanadi. 2023-yil 12-mayda Prezidentimizning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmon bilan ushbu sanaga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Bu mamlakatimizda inson huquq va erkinliklariga bo‘lgan e’tiborning yuqori o‘rinda ekanini namoyon etadi.

Mazkur xalqaro hujjat har bir insonning shaxsiy daxlsizligi, mulk, e’tiqod va so‘z erkinligi, fuqarolik, davlat boshqaruvida qatnashish, saylash, saylanish, oila, mehnat va dam olish, ta’lim, tibbiy va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, madaniyat va san’at asarlaridan bahra olish huquqlarini himoya qiladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng tan olingan dastlabki xalqaro huquqiy hujjatlardan biridir. Deklaratsiyaning barcha asosiy prinsiplari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Inson huquqlari orasida barcha huquqlardan foydalanishga yo‘l ochib beradigan boshlang‘ich nuqta bu ta’lim olish huquqi hisoblanadi. Bu haqda deklaratsiyaning 26-moddasida “Har bir inson ta’lim olish huquqiga ega” deb qayd etilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham davlat uzluksiz ta’lim tizimini, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratida ekani qayd etilgan.

Shuningdek, deklaratsiyaning 1-moddasida “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar” deb mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lsa, Konstitutsiyamizda ham inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘lishi belgilanib, O‘zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi, deya kafolatlangan.

Deklaratsiyaning dolzarbligi shundaki, u jahon hamjamiyati tomonidan inson huquq va erkinliklari tan olinishida asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Aksariyat davlatlar ushbu xalqaro huquq normalari asosida inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga ko‘maklashayotgani va shu sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan siyosatni qo‘llab-quvvatlayotgani tahsinga sazovor.

Joriy yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligi keng nishonlanadi. 2023-yil 12-mayda Prezidentimizning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmon bilan ushbu sanaga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Bu mamlakatimizda inson huquq va erkinliklariga bo‘lgan e’tiborning yuqori o‘rinda ekanini namoyon etadi.

Inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning yana bir asosi fuqarolarning mulkka egalik qilish huquqi kafolatlanishidir. Deklaratsiyada bu jihatlar ham aks etgan. Unga hamohang tarzda Konstitutsiyamizda ham har bir shaxsning mulkdor bo‘lishga haqli ekanligi va meros huquqi qonun bilan himoyalanishi belgilangan.

Ta’kidlash joizki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi talablari negizida ishlab chiqilgan va mamlakatimiz hayotining barcha sohalariga izchil tatbiq etilayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ma’nomohiyati jihatidan milliy, mintaqaviy va global darajadagi ahamiyatga ega muhim hujjat hisoblanadi. Unda belgilangan ustuvor yo‘nalishning bosh g‘oyasi inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan. Shunday ekan, inson, uning manfaatlari ustun bo‘lgan jamiyatda farovon hayot hukmron bo‘ladi.

Deklaratsiya ham ana shunday hayotbaxsh g‘oyalarni ro‘yobga chiqarishga turtki beradigan muhim hujjatdir. Unda aks etgan tamoyillarga rioya etilishi butun dunyoda inson qadrini ulug‘lash, huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, erkin demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘layotir. Mamlakatlar o‘z konstitutsiyaviy islohotlarida ushbu deklaratsiyadan namuna olayotgani esa sayyoramizda tinchlik va farovonlikni ta’minlash, butun bashariyatni yuksalish va taraqqiyot sari yetaklashga xizmat qiladi.

www.yuz.uz
yuz.uznews
yuz_official
yuz.uz_news

NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATIGA 65 YIL

FIDOYILIK VA JASORAT TARIXI

Quvondiq SANAQULOV,
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
Bosh direktori

Boshlanishi 1-betda

KO‘HNA TARIX SHODASIDA...

O‘zbekiston hududida qadimdan kon-metallurgiya taraqqiy etgan. Agar Yevropa Uyg‘onish davrida adabiyot va san’at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo‘lsa, Sharq Uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlar, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyot rivojida namoyon bo‘ladi. Binobarin, buyuk alloma va mutafakkir bobolarimiz bebaho asarlarining nainki mintaqa, balki dunyo kon-metallurgiya sohasi taraqqiyotida ham o‘rni beqiyosdir.

Masalan, buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi, ya’ni “Minerologiya” asarida noyob toshlar va minerallar hamda metallarning nomlari, kimyoviy va fizik xossalarini aniqlash, eritib sinash, solishtirma og‘irligini o‘lchash, konlarda mavjud deyarli hamma qimmatbaho ma’danlar, ularning qotishmalari haqida ilmiy ma’lumotlar bayon etilgan. Mazkur asar bugungi kunda ham o‘z ilmiy qimmatini yo‘qotgan emas. Bu kon-metallurgiya sohasi yurtimizda qadimdan ilmiy manbalarga tayangan holda rivojlanganidan shohidlik beradi.

XX asr o‘rtalarida mamlakatimiz zaminida yer osti boyliklarining katta zaxiralari qidirib topildi. O‘zbekiston hududida istiqbolli oltin konlari mavjudligi haqidagi ilmiy bashoratlar to‘liq tasdiqlandi. Geologlarning yangi avlodi — jahonda tan olingan Habib Abdullayev, Habibullo To‘laganov, Ibrohim Hamroboyev kabi olimlar va ularning shogirdlari yetishib chiqdi, soha maktabiga asos solindi. Bu maktab chet ellarda ham shuhrat qozondi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda yangi foydali konlar ochish, mineral xom-ashyo bazasini rivojlantirish borasida tizimli ishlar qilindi. Sohani jadal rivojlantirish, ayniqsa, qazilma boyliklarni izlab topish, geologik qidiruv ishlari samaradorligini oshirishda T.Shoyoqubov, N.Ahmedov, F.Islomov kabi taniqli geologlarning xizmatlari katta bo‘ldi. O‘zbekiston hududidagi yer osti boyliklari xalqimiz farovonligini oshirish, mamlakat ravnaqi va iqtisodiyotini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Qizilqumdagi boyliklarni o‘zlashtirishda faol qatnashgan minglab muhandis, quruvchi, energetik, konchi va metallurglarning nomlari Navoiy kon-metallurgiya kombinatining shonli tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan.

Bundan 65 yil muqaddam Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topishi bilan Qizilqum sahrosida uran va oltin konlarini o‘zlashtirish ishlari boshlangan edi.

Asrlar mobaynida bag‘rida javohirlar saqlab yotgan sahroga sanoat kirib keldi. O‘sha davrda konchilik sohasining tajribali muhandis va mutaxassislari uning biyday kengliklarida kon va shaxtalar, gidrometallurgiya zavodlari, avtomobil va temir yo‘llar barpo etdi. Yurtimizda qimmatbaho metallarni qazib olish hamda ularni qayta ishlash, iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega ulkan mineral boyliklarning keng miqyosda o‘zlashtirilishiga tamal toshi qo‘yildi.

Bu zaminda mazkur sanoat majmuasi negizida buyuk shoir va mutafakkir bobomiz nomi bilan atalgan ko‘rkam va zamonaviy Navoiy shahriga asos solindi. Kon boshqarmalari va yirik sanoat obyektlari negizida Uchquduq, Zarafshon, Nurobod, Zarkent va Marjonbuloq kabi shaharlar barpo etildi.

Kombinatning 65 yillik shonli tarixida bilim va tajribasi, mahorati va kasbiga sadoqatini soha rivojiga baxshida etib, fidokorona mehnat qilgan minglab konchi va metallurglar, geologlar, quruvchilar va boshqa kasb egalarining mashaqqatli mehnatlari mujassam.

TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA

Navoiy kon-metallurgiya kombinati uchun keyingi yillar taraqqiyotning yangi davrini boshlab berdi. Bu davrda korxonada mavjud konlardagi qimmatbaho metallar zaxirasini ko‘paytirish, yangilarini o‘zlashtirish, gidrometallurgiya zavodlari barpo etish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilindi. Natijada korxona dunyodagi qimmatbaho metallar ishlab chiqaruvchi yetakchi kompaniyalarning oldingi qatoridan o‘rin egallab kelyapti. Bugungi bayram amalga oshirilgan ulkan ishlarimiz, olamshumul yutuqlarimizni sarhisob qilib, kelgusi rejalarimizni belgilab olish uchun munosib sanadir.

Korxonamiz qazilma boyliklarni geologik qidirish, qazib olish, qayta ishlab, raqobatbardosh va sifatli mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan texnologik zanjirga bog‘langan yirik sanoat klasteri sifatida faoliyat yuritmoqda.

Kombinatda davlatimiz mustaqilligigacha ikkita gidrometallurgiya zavodi barpo etilgan bo‘lsa, istiqlol yillarida oltita zavod, shundan to‘rttasi keyingi yetti yilda ishga tushirildi. Jumladan, yiliga 5 million tonna ma’danni qayta ishlaydigan 5-gidrometallurgiya zavodi, yillik quvvati 16 million tonna texnogen chiqindini qayta ishlashga mo‘ljallangan 7-gidrometallurgiya zavodi, 2-gidrometallurgiya korxonasining yiliga 12 million tonna ma’danni qayta ishlaydigan ikkinchi navbati, joriy yilda esa Nurota tumanida Pistali koni negizida yiliga 4 million tonna ma’danni qayta ishlaydigan 6-gidrometallurgiya zavodi foydalanishga topshirildi. Erishilayotgan bunday yutuqlar zamirida, eng avvalo, yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik, yaratilayotgan imkoniyatlar, ikkinchidan, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda kombinat jamoasi doimo qo‘llab-quvvatlanishi, uchinchidan, xalqimizning bunyodkorlik ruhiyati va kasbining fidoyisi bo‘lgan konchilarning beqiyos mehnati yotibdi.



Kon-metallurgiya kombinatida 2017-2026-yillarda qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni ko‘paytirish dasturi qabul qilinib, 2026-yilda oltin ishlab chiqarishni 30 foiz oshirish vazifasi qo‘yilgandi. Bu vazifa nihoyatda murakkab va mas’uliyatli, uni bajarishga ishonish ham qiyin edi. Hukumatimiz ko‘magi, jamoamizning sermashaqqat mehnati, mutaxassislarimizning bilimi, salohiyati, astoydil izlanishi va intilishi tufayli vazifa muddatidan ikki yil oldin, 2024-yilda so‘zsiz uddalanadi. Bundan ko‘rinadiki, keyingi yetti yil mamlakatimiz kon-metallurgiya sanoati taraqqiyoti, jumladan, kombinatimiz uchun yangi yuksalish davri bo‘ldi.

Yer osti xazinalaridan oqilona va samarali foydalanish yurtimiz ravnaqiga xizmat qiladi. Oltin zaxiralari ko‘pligi, ma’dan qazib olish texnologik sharoitlari qulayligi uchun Muruntov oltin koni “jahonning noyob javohiri”, “asr mo‘jizasi” deb ham ataladi.

Kanadaning Kitso xalqaro tahliliy markazi ma’lumotlariga ko‘ra, Qizilqum kengliklarida joylashgan mazkur kon keyingi yillar davomida oltin qazib olish bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinni egallab kelyapti. O‘tgan yili konda 2 million unsiyadan ziyod (1 unsiya — 31,1 gramm) oltin qazib olindi.

Bugungi kunda ishlab chiqarishga innovatsion ishlanmalar, raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, dastgohsozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham eng zamonaviy korxona maqomini egallab kelmoqda.

Muhandis va mutaxassislar izlanishlari natijasida Muruntov konida jahonda yagona va noyob, qiyalik burchagi 37 daraja va umumiy uzunligi

1 ming 802 metr bo‘lgan tik-qiya konveyer (KNK-270) ishga tushirilgan. Bu kon-metallurgiya sanoati tarixida olamshumul yangilikdir. Uning foydalanishga topshirilishi tufayli konda ma’danni transportda tashish masofasini 4,5 kilometr, ko‘tarish balandligini esa 285 metr qisqartirishga erishildi. Konveyerning iqtisodiy samarasi juda katta bo‘lmoqda. Bu yurtimizda mehnat qilayotgan har bir konchiga iftixor va g‘urur tuyg‘usini baxsh etishi barobarida yangi marralarni egallashga ruhlantiradi. Ayni paytda qiymati 733,9 million dollar bo‘lgan “Muruntov konini o‘zlashtirish (5-navbati) 1-bosqich” investitsion loyihasi amalga oshirilyapti.

> **Korxonamizda universitet bilan yaqin hamkorlik mavjud. Negaki, har yili mazkur oliygohni tugatayotgan yuzlab yoshlar kombinat bo‘linmalariga ishga keladi. Ularning o‘z sohasi bo‘yicha yetuk va malakali mutaxassis bo‘lib yetishishida ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining yaxshi yo‘lga qo‘yilgani qo‘l kelyapti. Buning hisobiga yoshlar korxonalarga borganidan keyin tezda ishlab chiqarish jarayoniga kirishib, uning sir-asrorlarini o‘zlashtirmoqda.**

Bugungi kunda o‘zbek oltinining yuqori sifati butun dunyoda e’tirof etilgani, mamlakatimiz oltin-valyuta zaxiralari ortib, iqtisodiy salohiyati yuksalib borayotganida ham iqtisodiyotimiz lokomotivi hisoblangan Navoiy kon-metallurgiya kombinati ko‘p millatli mehnat jamoasining xizmati beqiyos.

Keyingi yillarda kombinat faoliyatini yanada rivojlantirish, zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish, mahsulot raqobatbardoshligini yanada oshirish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va, eng asosiysi, sohaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida Prezident va hukumatning qator hujjatlari qabul qilinib, quyidagilar amalga oshirildi:

— xorijiy investorlar talablariga muvofiq, xalqaro auditorlik kompaniyasi ishtirokida Global tashabbuskorlik hisoboti (GRI) standartlariga asosan barqaror rivojlanish hisoboti (ESG) tayyorlandi;

— biznes jarayonlarni optimallashtirish loyihasi doirasida “1C ERP: Xoldingni boshqarish” buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarni yuritish elektron tizimi joriy qilindi;

— NKMK balansidagi qimmatbaho metallar zaxirasi Avstraliyaning JORC Code standartlari talablari asosida qayta baholandi;

— xalqaro ekspertlar va yetakchi konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda korporativ boshqaruvning zamonaviy usullariga mos ravishda NKMK AJning tubdan yangicha korporativ tuzilmasi ishlab chiqildi va joriy qilindi. Aksiyadorlik jamiyatining kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida “hed-hanter” tashkilotlari bilan hamkorlikda yetakchi xorijiy kompaniyalarda faoliyat yuritgan xorijiy va mahalliy mutaxassislarni kombinatning rahbarlik lavozimlariga jalb qilish ishlari olib borilmoqda;

— 2022-yil uchun moliyaviy hisobotlarning to‘liq majmuasi Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlandi. Hisobot “Deloyt va Tush” xalqaro audit kompaniyasi tomonidan auditdan o‘tkazildi va ijobiy xulosa olindi;

— kombinat tomonidan birinchi marta yetakchi xalqaro banklardan 5 yil muddatga uzoq muddatli sindikatlashtirilgan kredit jalb etildi. Bitimning umumiy qiymati 1,2 milliard dollarni tashkil qilib, mablag‘ni taqdim etishda JP Morgan & Chase, Citi, Societe Generale, Credit Suisse, ICBC Standard, Halyk Bank va Deutsche Bank kabi moliya tashkilotlari ishtirok etmoqda. Mablag‘dan jamiyatning umumiy korporativ maqsadlari va investitsiya dasturini moliyalashtirish uchun foydalanilmoqda.

Korxonada yangilanish jarayonining maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydigan 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan transformatsiya dasturi tasdiqlangan. U resurslar bazasini rivojlantirish, asosiy ishlab chiqarish va yordamchi jarayonlarning operatsion samaradorligini oshirish, raqamlashtirishni keng joriy qilish, investitsion jarayonlarni rivojlantirish va loyihaviy qarorlarni maqbullashtirish, ESG va sanoat xavfsizligini ta’minlash kabi yo‘nalishlarni qamrab olgan.

Shu bilan birga, “Boston konsalting grupp (BCG)” xalqaro konsalting kompaniyasini jalb etgan holda NKMK AJning 2023-2030-yillarga mo‘ljallangan raqamli transformatsiya strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiya kombinat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha 12 ta raqamlashtirish dasturini o‘z ichiga oladi. Yagona kon-geologiya axborot tizimi, uzoq va o‘rta muddatli rejalashtirish, kon ishlarini boshqarish, raqamli gidrometallurgiya, kon-metallurgiya zavodlarining texnologik jarayonini boshqarish uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatkichlar, mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi hamda ekologik monitoring yagona platformasi va yo‘nalishlar bo‘yicha dasturlar shular sirasiga kiradi.

Bugun ishga tushirilayotgan zavodlarimiz uchun eng murakkab asbob-uskuna va jihozlar, masalan, gidrometallurgiya zavodlari uchun tegirmonlar ham o‘zimizda ishlab chiqarilayotir.

YOSHLAR — KORXONA TAYANCHI VA KELAJAGI

Eng katta yutuqlarimizdan yana biri — barpo etilgan zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini tashabbuskor, bilimli va shijoatli yoshlar boshqarayotgani. So‘nggi yillarda yoshlarga keng imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda. Negaki, yoshlar davlatning hal qiluvchi kuchi, ertamiz egalari, yurtning katta boyligi, bebaho xazinasidir.

Ilm-fan har bir mamlakatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim soha. Shu ma’noda, yoshlarning ilm-fan sirlarini har qachongidan ham ko‘proq o‘rganishi, intellektual salohiyatini doimo oshirib borishi, ularni o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, kechayotgan islohotlarning faol ishtirokchisi, intiluvchan va fidoyi, yurti va kasbiga sadoqatli shaxs sifatida tarbiyalash nihoyatda muhimdir.

Kadrlar, ayniqsa, malakali kadrlarga ehtiyoj doimo dolzarb masala bo‘lib kelgan. O‘tkaziladigan har qanday islohotda malakali mutaxassislarning o‘rni juda katta. Negaki, bugungi kunda ilm-fan yutuqlari va yangi texnologiyalarsiz hech bir soha rivojlanmaydi.

Kon-metallurgiya sanoati korxonalari uchun malakali muhandis kadrlar tayyorlash hamda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga erishish maqsadida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining ilmiy-pedagogik salohiyati oshirilayotgani, moddiy-texnik bazasi mustahkamlanayotgani soha taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Universitet zamonaviy o‘quv binosiga ega. Laboratoriyalar so‘nggi rusumdagi asbob-uskunalar bilan jihozlangan, unda professor-o‘qituvchilar va talabalar ilmiy-tadqiqotlar qilishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Bundan o‘n yil ilgari mazkur dargohda chet ellik talabalar tahsil oladi va sohaning taniqli professorlari ma’ruza o‘qiydi, desa hech kim ishonmasdi. Bu esa bugungi kunning oddiy haqiqatiga aylangan. Ayni paytda universitetda 150 nafarga yaqin xorijlik talaba tahsil oladi. 62 nafar professor-o‘qituvchi xorijiy til sertifikatiga ega. Jami mutaxassislik fanlarining 23,2 foizi, jumladan, 79 ta fan ingliz tilida o‘qitilmoqda. Bu jarayon 600 nafarga yaqin talabani qamrab olgan. Oliy dargohning 3 xodimi Yaponiyaning Akita va Kanadaning Makgill (McGill University) universitetlari hamda N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universitetida doktoranturada tahsil olmoqda.

Hozir universitetda 35 fan doktori, 133 fan nomzodi (PhD) faoliyat yuritmoqda. Ilmiy salohiyat 56,6 foizni tashkil etadi. Uning negizida “Navoiy” ilmiy-texnologiya sanoat parki tashkil etilib, rudani tayyorlash, boyitish, minerallarni flotatsiya, gidrometallurgiya va pirometallurgiya usullari bilan qayta ishlash kabi laboratoriyalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Korxonamizda universitet bilan yaqin hamkorlik mavjud. Negaki, har yili mazkur oliygohni tugatayotgan yuzlab yoshlar kombinat bo‘linmalariga ishga keladi. Ularning o‘z sohasi bo‘yicha yetuk va malakali mutaxassis bo‘lib yetishishida ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining yaxshi yo‘lga qo‘yilgani qo‘l kelyapti. Buning hisobiga yoshlar korxonalarga borganidan keyin tezda ishlab chiqarish jarayoniga kirishib, uning sir-asrorlarini o‘zlashtirmoqda.

ISTIQBOL REJALARI

Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar va kuchli raqobat kombinat jamoasi zimmasiga biri biridan muhim vazifalarni yuklamoqda. Har bir ishimizga ilmiy va amaliy yondashib, yangiliklarni izchil tatbiq etib borish hayotiy zaruratga aylanmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida kon-metallurgiya sanoati korxonalari oldiga katta vazifalar qo‘yilgan. Jumladan, 2030-yilga borib O‘zbekistonda yuqori daromadli mahsulot uchun zarur mis ishlab chiqarish 3,5 barobar, oltin — 1,5 barobar, kumush — 3 barobar, uran — 3 barobar oshadi.

Bu borada Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi ham o‘z oldiga katta marralarni qo‘ygan. Kelgusi yetti yilda kombinatda 20 dan ziyod yirik investitsiya loyihasi amalga oshirilishi rejalashtirilgan. “Kokpatas va Dovgiztov oltin konlarida ma’dan qazib olish. 3-bosqich”, “Nuqrakon va Kosmonachi konlaridan kumush tarkibli ma’danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish”, “7-GMZ qayta ishlash quvvatini kengaytirish”, “Muruntov konini o‘zlashtirishning (5-navbati) 2-bosqichi” kabi investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida kombinatda qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmi oshadi va minglab yangi ish o‘rni ochiladi.

Qolaversa, bu yerda qator yangi yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni yaratishimiz, raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirishimiz, hududning ulkan tabiiy, ishlab chiqarish, mehnat va intellektual salohiyatini yanada to‘liq ro‘yobga chiqarishimiz lozim.

Ishonchimiz komilki, kombinatimizning yuksak kasbiy mahoratga, boy bilim va malakaga ega jamoasi bu muhim hamda dasturulamal vazifalarni sharaf bilan o‘z vaqtida uddalaydi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

2022-yil 15-sentyabrda Samarqandda O‘zbekiston, Xitoy va Qirg‘iziston transport vazirlari temir yo‘l qurilishi loyihasi bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi bitimni imzolagan edi. Uning umumiy uzunligi taxminan 454 kilometrni tashkil etadi, shundan 280 kilometr qismi Qirg‘iziston hududidan o‘tishi rejalashtirilgan. Yo‘nalishda 18 ta stansiya, uzunligi 26,1 kilometrga teng 81 ta katta va o‘rtacha ko‘prik, umumiy masofasi 120,39 kilometrni tashkil etadigan 41 ta tunnel quriladi.

SHARH

IHTNING TRANSPORT-LOGISTIKA SALOHIYATI

undan samarali foydalanish xalqaro raqobatbardoshlikni oshiradi

Boshlanishi 1-betda

Yaqinda IHT transport vazirlarining Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi, mintaqaviy elektr energiyasi bozori hamda Boku shahrida Toza energiya markazi tashkil etilmoqda. Ekologiya sohasida yuqori darajadagi muloqot platformasi tuzildi, turoperatorlar tarmog‘i yaratildi va Xavfsiz turizmni rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

— Prezidentimiz o‘z nutqida a’zo davlatlar o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlikni kengaytirish uchun hali ishga solinmagan katta salohiyat mavjudligini ta’kidladi, — deydi falsafa fanlari doktori, professor Azamat Muxtorov. — Bunga misol sifatida o‘tgan yili mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro savdo

85 milliard dollarni tashkil etgani, bu ular umumiy tashqi savdosining atigi 8 foiziga to‘g‘ri kelishi keltirildi.

Davlatimiz rahbari IHT doirasidagi hamkorlikka yangi sur’at bag‘ishlash maqsadida “Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari — 2035” konseptual hujjatini ishlab chiqishni taklif qildi. Unda o‘zaro savdoni rag‘batlantirish, transport-kommunikatsiyaviy bog‘liqlikni kuchaytirish, sanoat kooperatsiyasini faollashtirish, energetika xavfsizligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, turizm va madaniy-gumanitar almashinuv sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish kabi asosiy yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratildi.

Transport — iqtisodiyotning qon tomiri. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, pandemiya arafasida dunyo transport xizmatlarining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi 4,3 trillion dollar (6,9 foiz) baholanib, yiliga 110 milliard tonna yuk va 1 trilliondan ortiq yo‘lovchi tashilgan, transport infratuzilmasida band xodimlar soni 100 million kishini tashkil etgan. Koronavirus pandemiyasi va davom etayotgan turli mojarolar tufayli bu ko‘rsatkichlar ancha pasayib ketdi. Xalqaro transport tuzilmasi keyingi paytga kelib, o‘z qaddini asta-sekin tiklay boshladi.

Ekspertlar fikricha, transport-kommunikatsiya sohasida barcha sa’y-harakatlarni birlashtirish IHT davlatlarining transport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Chunki unga a’zo davlatlarning Yevropa va Osiyo qit’asini bog‘lab turuvchi qulay geostrategik hududda joylashishiga qaramay, bugungi kunda Osiyo va Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi savdoning 70 foizi dengiz transporti, 25 foizi havo kemalari, 5 foizi esa quruqlikdagi yo‘laklar orqali amalga oshirilmoqda.

IHTga a’zo davlatlarning aksariyati dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega emas. Bu muammoni hal etishda Osiyo-Tinch okeani, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa mintaqalarining yirik bozorlari bilan bog‘laydigan va mintaqa hududlari orqali o‘tadigan transqit’aviy transport yo‘laklari salohiyatidan to‘liq foydalanish, Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘li va Transafg‘on multimodal yo‘li loyihalarini ishga tushirishni tezlashtirish talab etiladi.

Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston multimodal transport yo‘lagi orqali yuk tashish hajmi keskin oshishi davom etmoqda. 2022-yilda bu ko‘rsatkich 7,5 karra o‘sib, O‘zbekistonning Osiyo — Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan yuk tashuvlari umumiy hajmidagi ulushi 1 foizdan 13 foizga yetdi.

Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov sammitda so‘zlagan nutqida “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘li mintaqamizning savdo-iqtisodiy va tranzit imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi”, dedi.

Uning fikricha, bu temir yo‘l 4 milliardga yaqin aholini bog‘laydi va Osiyodan Turkiya orqali Yevropa, Yaqin Sharq, Eron, shuningdek, Fors ko‘rfazi va Shimoliy Afrika mamlakatlariga yuk tashish geografiyasini kengaytiradi.

“Mintaqamiz Shimol va Janub, G‘arb va Sharq o‘rtasida asosiy ko‘prik vazifasini o‘tashi mumkin. Dengiz portlariga chiqish imkoniyatlarini yaratish uchun mintaqamizda transport-logistika yo‘laklari va multimodal tashishni rivojlantirish bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega”, dedi u.

2022-yil 15-sentabrda Samarqandda O‘zbekiston, Xitoy va Qirg‘iziston transport vazirlari temir yo‘l qurilishi loyihasi bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi bitimni imzolagan edi. Uning umumiy uzunligi taxminan 454 kilometrni tashkil etadi, shundan 280 kilometr qismi Qirg‘iziston hududidan o‘tishi rejalashtirilgan. Yo‘nalishda 18 ta stansiya, uzunligi 26,1 kilometrga teng 81 ta katta va o‘rtacha ko‘prik, umumiy masofasi 120,39 kilometrni tashkil etadigan 41 ta tunnel quriladi.

Loyiha Sharqiy Osiyodan Yaqin Sharq va Janubiy Yevropa mamlakatlariga yo‘lni taxminan 900 kilometr, yuk yetkazib berish muddatini esa 7-8 kunga kamaytiradi. Dastlabki prognozlarga ko‘ra, yuk tashish hajmi yiliga 12-15 million tonnaga yetadi. Qurilish ishlariga 2024-yilda start berilishi mo‘ljallangan.

Afg‘onistonda Hayraton va Mozori Sharif o‘rtasida temir yo‘l barpo etilishi mintaqa mamlakatlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan muhim loyiha — Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar temir yo‘l yo‘lagi qurilishining uzviy qismi hisoblanadi.

Osiyo taraqqiyot banki ma’lumotlariga ko‘ra, Hayraton — Mozori Sharif temir yo‘li tufayli 1,2 mingdan ortiq kishi yangi ish o‘rni bilan ta’minlandi, temir yo‘l bo‘ylab bandlikning o‘sish sur’ati yiliga 10-11 foizni tashkil etyapti. 2022-yil davomida Transafg‘on yo‘lagi orqali yuk tashuvlar hajmi 2,5 barobar o‘sib, 670 ming tonnani tashkil etgani, joriy yil yakuniga qadar bu raqam 1 million tonnadan oshishi kutilayotgani ham uning nechog‘liq muhimligidan dalolat beradi.

Osiyo taraqqiyot banki ma’lumotlariga ko‘ra, Hayraton — Mozori Sharif temir yo‘li tufayli 1,2 mingdan ortiq kishi yangi ish o‘rni bilan ta’minlandi, temir yo‘l bo‘ylab bandlikning o‘sish sur’ati yiliga 10-11 foizni tashkil etyapti. 2022-yil davomida Transafg‘on yo‘lagi orqali yuk tashuvlar hajmi 2,5 barobar o‘sib, 670 ming tonnani tashkil etgani, joriy yil yakuniga qadar bu raqam 1 million tonnadan oshishi kutilayotgani ham uning nechog‘liq muhimligidan dalolat beradi.

— Toshkentda IHT transport vazirlarining 2-noyabrda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya transport yo‘lagini rivojlantirish bo‘yicha hujjat qabul qilindi, — deydi O‘zbekiston transport vaziri Ilhom Mahkamov. — Bu yo‘nalish, birinchi navbatda, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida yuk tashuvlarini muqobil janubiy yo‘lak orqali raqobatbardosh narxlarda va chegaradan o‘tish davlatlarini qisqartirish hamda tartib-taomillarni soddalashtirish hisobiga qisqa muddatlarda yetkazishga imkon beradi.

Prezidentimiz IHT sammitida tashkilotga a’zo boshqa mamlakatlarni ham ushbu hujjatga qo‘shilish, o‘zaro tarif va yig‘imlarni maqbullashtirishga da’vat etdi. Ta’kidlash joiz, O‘zbekiston Ozarbayjon va Turkiya bilan yuk tashish hujjatlarini raqamlashtirdi, shuningdek, boshqa davlatlar bilan bunday loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bu kabi zamonaviy tizimlarni keng joriy qilish hamda samarali muvofiqlashtirish uchun Toshkent shahrida tashkilotning Raqamli transport va bojxona ofisini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi.

O‘zbekiston qanday transport salohiyatiga ega?

Mamlakatimizda transport-kommunikatsiya tarmog‘i rivojida temir yo‘l tranziti imkoniyatini keskin oshirish, aviatsiyani qulay, tez va sifatli xizmat ko‘rsatadigan sohaga aylantirish, xalqaro tranzit yuklar uchun zamonaviy avtomobil yo‘llarini kengaytirishga alohida ahamiyat berilyapti.

Transport vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, o‘tgan davr mobaynida 1,5 ming kilometrdan ortiq yangi temir yo‘l qurildi, mavjud 4 ming kilometr yo‘l to‘liq ta’mirlandi, 2 ming kilometrga yaqin magistral elektrlashtirildi. O‘zbekiston MDH orasida 2011-yilda birinchilardan bo‘lib tezyurar poyezdlar harakatini yo‘lga qo‘ydi.

Hozirgi kunda milliy temir yo‘llarimizni to‘liq elektrlashtirish hamda transkontinental yo‘nalishlar tarmog‘iga integratsiya qilish jarayoni izchil amalga oshirilmoqda.

Aviatsiya sohasida ham raqobat muhitini yaratish, aeroportlar va xususiy aviakompaniyalarni rivojlantirish maqsadida keng islohotlar boshlandi. Natijada O‘zbekistonning rezident aviakompaniyalari soni 16 taga, shulardan 13 tasi xususiy, havo kemalari soni 73 taga, xalqaro aeroportlar soni esa 11 taga yetkazildi. Yaqin yillarda havo kemalari sonini 100 taga yetkazish rejalashtirilgan. Navoiy xalqaro aeroporti hududida yuklar oqimini boshqarish uchun xalqaro intermodal logistika markazi ishga tushirildi.

Ayni paytga kelib, yurtimizda xavfsiz va qulay avtomobil yo‘llari qurilishi tufayli ularning uzunligi 43 ming kilometrga yetdi. Toshkent — Samarqand va Toshkent — Andijon yo‘nalishida davlat-xususiy sheriklik asosida 700 kilometrga yaqin pulli yo‘l qurilishi bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, sohada tadbirkorlik subyektlariga yangi transport vositalarini xarid qilishga davlat tomonidan berilgan imtiyozlar natijasida oxirgi 5 yilda yuk avtotransport vositalari soni 4 barobar oshdi. Avtomobilda xalqaro tashuvlarni amalga oshiruvchi kompaniyalar soni keyingi paytda 3 barobar ko‘payib, 2 mingtani tashkil etyapti.

Sanoat, tadbirkorlik tobora rivojlanib, eksportyorlar soni ortib boryapti. Xususan, Statistika agentligi ma’lumotiga ko‘ra, shu yil yanvar-sentyabr oylarida O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi hajmi 44,7 milliard dollardan ziyod bo‘lgan va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 22,1 foiz oshgan.

Iqtisodiyotda ishlab chiqarish qanchalik muhim bo‘lsa, mahsulotni yetkazib berish ham shunchalik ahamiyatli. Ayniqsa, hozir dunyoda logistika muammolari avjiga chiqqan vaziyatda bu o‘ta dolzarb. Shu bois, yurtimizda dunyoda yuk tashish xarajatlari oshganini inobatga olgan holda Yevropaga tayyor mahsulotlar eksport qiluvchi korxonalarga transport xarajatlari uchun subsidiya miqdori 50 foizdan 70 foizga ko‘tarildi. Chunki transportda yuk tashish tannarxi past bo‘lsa, eksport va investitsiya ko‘payadi.

Abdurauf QORJOVOV,
iqtisodiy sharhlovchi

QISHLOQ XO‘JALIGI

TO‘QSONDA SUG‘ORGANNING HOSILI TO‘QSON BOTMON

Kuz — dehqon uchun ham, bog‘bon uchun ham birday sertashvish, tig‘iz payt. Dalalarda asosiy va takroriy ekinlar hosili yig‘ib-terib olinayotgan bir vaqtda mirishkorlar “to‘qsonbosti” ekinlar ekishga taraddud ko‘radi. Xalqimizda “To‘qsonda sug‘orsang, to‘qson botmon hosil olasan”, degan maqol bor. Bu bejiz emas. Kuzda ekilib, qor ostida qoldirilgan sabzavot ekinlari barvaqt unib chiqib, tez rivojlanishi hisobiga erta hosil beradi. Bunday mahsulotlarga talab yuqori, bozori chaqqon bo‘ladi.

Odatda, “to‘qsonbosti” ekin ekish kuzning birinchi oyidan boshlanib, noyabr oyining oxiri, dekabrning boshlarida tugallanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ayni kunlarda yurtimiz bo‘ylab “to‘qsonbosti” usulida ekin ekish ishlari qizg‘in davom etyapti. Xususan, Qorako‘l tumanida 3 ming 734 gektar maydonda ushbu usulda sabzavot yetishtirish uchun zarur choralar ko‘rilmoqda.

— Erta bahorda yog‘ingarchilik hisobiga yerning yetilishi, ayniqsa, o‘tloq yerlarda qiyin bo‘ladi, ertaki ekinlarni ekish muddati cho‘zilib ketadi, — deydi tuman qishloq xo‘jaligi bo‘lim boshlig‘i Elyor Ro‘ziyev. — Shu tufayli “to‘qsonbosti” usuli qo‘l keladi. Ayni usulda mahsulot yetishtirish uchun ekin maydonlari obdon sug‘orilib, keyin shudgorlanib tayyorlangan. Qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirish imkoni mavjud 861 gektar bog‘ va tokzor oralariga shu usulda sarimsoqpiyoz, ismaloq, piyoz va turli ko‘katlar ekilmoqda. Tumanimiz bo‘yicha reja qilingan maydonning 60 gektari fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelsa, 2 ming 162 gektari aholi xonadonlari ulushidir. 1 ming 512 gektar ekin yeri esa davlatimiz rahbarining tegishli qarori asosida paxta va g‘alladan qisqartirilib, aholining ehtiyojmand qismiga tarqatib berilgan va ayni kunda sabzavot-poliz mahsulotlari yetishtirish uchun mo‘ljallangan konturlar hisoblanadi.

Ter to‘kib sochsang urug‘…

Kundalik oziq-ovqat mahsulotlari tanqis “ilik uzildi” paytida vitaminli mahsulotlar bilan ichki bozor ehtiyojini qoplashning ahamiyati katta. Bu jihat eksport imkoniyatini ham kengaytiradi. Bobolarimiz aytganidek, “to‘qsonbosti” ekinlar “aqlli” bo‘ladi, obhavoga qarab qulay unib chiqish davrini o‘zi aniqlaydi. Tumandagi Shavkat Nishonov boshchilik qilayotgan “Oyxon Boboxon” fermer xo‘jaligi jamoasi ham 3 gektarda tokzor qator orasida ismaloq va kashnich yetishtirishga bel bog‘lagan.

— Har gektariga 2,5 kilogrammdan ismaloq va kashnich urug‘ini sepib, parvarishlashga kirishdik, — deydi Sh.Nishonov. — Erta bahorda dasturxonimizda daladan sarxil uzilgan oshko‘klar bo‘ladi. Shuningdek, mahsulotni bozorga chiqarib, yaxshigina daromad olishni mo‘ljallayapmiz. “Ter to‘kib sochsang urug‘, yer seni qo‘ymas quruq”, deb bejiz aytmagan. Dehqonchilik, bog‘dorchilik orqasidan katta daromad olyapmiz. Bir mavsumda bir necha bor mahsulot olish uchun urug‘larni 12-16 kun oralatib sepgan ma’qul. Shunda davomiy hosil olish mumkin. Dehqonchasiga tushuntirsam, urug‘ past haroratdagi namlikda ko‘pchib bo‘kadi, erta bahorda past haroratda quloq chiqazadi. Mahsulotni bir kun erta chiqarsak ham, bizning omadimiz.

Foydali ishning etagini tutgan, boshqacha aytganda, daromad mazasini olgan odamga keyin qanday pul topishni o‘rgatib o‘tirishga hojat yo‘q. Omilkor dehqonlar yerga qadalajak bir urug‘ning ham oilaga nafi tegishini yaxshi anglab yetgan. Tumanda faoliyat yuritayotgan “Shahzodbek O‘rin Javohiri” fermer xo‘jaligi 6 gektar yerga piyozni ko‘chat usulida ekmoqda. Xo‘jalik rahbari Ubaydulla O‘rinov “to‘qsonbosti” ekinlar parvarishlash hadisini olganlardan. Yer bilan “tillashish”da katta tajribaga ega mirishkor piyozning har gektaridan erta bahorda o‘rtacha 150 tonnadan ziyod hosil olishni ko‘zlamoqda.

— Piyoz eng ko‘p iste’mol qilinadigan va bozorbop mahsulot hisoblanadi, — deydi U.O‘rinov. — Ekin ko‘chat usulida yetishtirilganda, urug‘ 3-4 barobar kam sarflanadi, qolaversa, o‘toq va yagana qilish uchun qo‘l mehnati sarfi kamayadi. Shu bois, ko‘chatlab ekish usulini afzal bilamiz. Avgust oyida urug‘ sepgan edik, ayni kezlarda ko‘chat holatida tayyor bo‘ldi, dalaga olib chiqdik. Bunday usulda tayyorlangan ko‘chatlarni noyabr oyi o‘rtasigacha ko‘chirib o‘tqazish va parvarishni davom ettirish mumkin.

Joriy yil 23-oktyabr kuni hududlarda ichimlik suv ta’minoti va oqova suv tizimini yaxshilash, oziq-ovqat ekinlarini ekish masalalari bo‘yicha davlatimiz rahbari raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishda bog‘ va tok qator oralariga ekin ekish tadbirlariga ham alohida to‘xtalib o‘tildi.

Yurtimizda 331 ming gektar bog‘ va 153 ming gektar tokzor bor. Yig‘ilishda ta’kidlanganidek, qator oralariga piyoz, sarimsoq, sabzi, bahor oylarida yer yong‘oq, kartoshka, pomidor va bodring ekilsa, bozorlarimizga qo‘shimcha mahsulot, aholiga daromad bo‘ladi. Ayni jihatlarni e’tiborga olgan holda yil yakunigacha 92 ming gektarga “to‘qsonbosti” usulida sabzavot ekish, bunga urug‘lik va suv yetkazib berish muhim vazifalar sifatida belgilandi.

Konveyerga qiyos

Surxondaryo viloyatida ham fermer xo‘jaliklari, qishloq va mahallalarda yashovchi aholining ko‘pchiligi “to‘qsonbosti” ekinlarni ekib, mo‘may daromad oladi. Voha mirishkorlari yoz bo‘yi yetishtirgan mahsulotlarni o‘z vaqtida yig‘ishtirib olib, ekinlardan bo‘shagan maydonlarga sarimsoqpiyoz, ismaloq, turp, karam, piyoz va ko‘kat ekib, parvarishlamoqda.

Angorliklar meva-sabzavot yetishtirishda katta tajribaga ega. Hududda parvarishlanadigan karam, daykon, oshko‘klar xorijda ham mashhur. Yerning har qarichidan oqilona foydalanish hadisini olgan mehnatsevarlar tomorqasi, dala maydonini konveyerga qiyoslash mumkin: bir qarasangiz, yerdan kartoshka qazishayotgani, bir zum o‘tib yana nazar tashlasangiz, karam va ko‘katlarni peshma-pesh uzib, bozorga chiqarayotganini ko‘rasiz.

— Angor tumanida 15 ming 500 gektar qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer bor, — deydi tuman qishloq xo‘jaligi bo‘lim boshlig‘i Bozor Jo‘rayev. — Shuningdek, bog‘dorchilik yo‘nalishida 84 ta fermer xo‘jaligi bo‘lib, qator oralariga qishki ekinlar ekib, yerdan unumli foydalanib kelmoqda. Yetishtirilgan mahsulotlar ichki bozordan tashqari chet davlatlarga ham eksport qilinadi. “To‘qsonbosti” qilib sepiladigan sabzavot urug‘lari sarfi boshqa mavsumdagidan 20 foiz ko‘proq bo‘lishi kerak. Urug‘ ekilgan egatlar ustidan chirigan mahalliy o‘g‘itlar, daraxt qipiqlaridan qoplama qilib yopish yoki shaffof polietilen plyonkalarini yopish sabzavot urug‘larini barvaqt unib chiqib, erta bahorda jadal o‘sib-rivojlanishini ta’minlaydi. Tumanimizda joriy yilda 4 ming gektarga yaqin maydonga “to‘qsonbosti” usulida sabzavot yetishtirish rejalashtirilgan.

Hosildorlik 20 foiz ko‘p bo‘ladi

Soha mutaxassislarining ta’kidlashicha, mazkur usulda bahorgi ekinga qaraganda, hosildorlik 20 foiz ko‘proq bo‘ladi. Yana bir tomoni, bahor oldidan inson organizmining turli vitaminlarga ehtiyoji sezilib qoladi. Ushbu darmondori vazifasini esa aynan “to‘qsonbosti” ekinlari vositasida bemalol qoplash mumkin. Shuningdek, bunday usul bozorlarimiz to‘kinligiga ham xizmat qiladi.

Angor tumanining yuqori Tallimaron mahallasida joylashgan “Tallimaron bog‘i surxon” fermer xo‘jaligi bog‘ida mevali daraxt qator oralaridan samarali foydalanish maqsadida karam, sarimsoqpiyoz, kartoshka ekilgan.

— Bog‘imizda shaftoli, o‘rik, olma daraxtlari, tok ekilgan, — deydi fermer xo‘jaligi rahbari Isroil Mamatov. — Bu yilgi hosil mo‘l bo‘ldi. Mahsulotni mahalliy bozordan tashqari qo‘shni davlatlarga ham yetkazib berdik. Endi bog‘ qator oralariga qishki ekinlarni ekishni boshladik. Yerni bir kun ham bo‘sh qo‘ymaymiz, uvoli bor. Undan unumli foydalanish dasturxon to‘kinligi va bozorda narx-navo barqarorligini ta’minlashning munosib yechimidir. Buning uchun kishida mehnatga ishtiyoq va havas bo‘lsa kifoya. Hozir qishki ekin ekishning ayni payti. Afzal tomoni shundaki, yer “ishlaydi”, rizq-u ro‘z beradi. Temirni qizig‘ida bossangiz, mevasini to‘qson kunda tovoqda ko‘rasiz. Ota-bobolarimiz qor ostida qolgan urug‘ barakali bo‘ladi, deb bejiz aytmagan.

Joriy yil 11-avgustda davlatimiz rahbari raisligida oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish orqali narx-navo barqarorligini saqlash masalalari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham narxlarni jilovlash takroriy ekinlarni ko‘paytirish va mahsulot hajmini oshirish orqali bo‘lishi kerakligi ta’kidlangan edi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, joriy yil mamlakatimizda “to‘qsonbosti” usulida ekin ekish uchun 370 ming gektar yer ajratilgan. Bu o‘tgan yilgiga nisbatan 70 ming gektar ko‘p. Sohada yaratilayotgan imkoniyatlardan o‘rinli foydalanish bozorlar to‘kinligi va xalqimiz farovonligiga katta hissa qo‘shadi.

Aholini bahor oylarida ertaki sabzavot mahsulotlari bilan ta’minlash, ichki bozorda narx-navo barqarorligini saqlash, eksportbop mahsulotlar yetishtirish maqsadida bog‘-tok qator oralariga piyoz va sarimsoqpiyoz hamda sabzavot ekinlari ekish, agrotexnika tadbirlarini o‘z muddatida o‘tkazish, ularga talab etiladigan moddiy-texnik resurslarini yetkazib berish qishloq xo‘jaligi sohasidagi bugungi dolzarb masalalardan.

Har qarich yerdan samarali foydalanib, mo‘maygina daromad olib kelayotganlarning dehqonchilikdagi tajribasini ko‘pchilikka ibrat qilib ko‘rsatsa, arziydi. Yozning saratoniyu, qishning qahratonida tomorqa yumushlarini maromida olib borayotgan mirishkorlar ham ro‘zg‘origa baraka olib kiradi, ham mo‘may daromad oladi.

Feruza JO‘RAYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

JARAYON

BIOTEXNOLOGIYA RIVOJI

gen muhandisligidan dorivor o‘simliklar materialigacha

Zabardast BO‘RIYEV,
Genomika va bioinformatika markazi direktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Kuz faslining so‘nggi kunlarida yuzaga keladigan paxta hosilini yig‘ib olishdagi noqulayliklarni bartaraf etish maqsadida g‘o‘zaning vegetatsiya davrini qisqartirish zarurati mazkur yo‘nalishning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. 1982-yilda Bioorganik kimyo institutida mamlakatda birinchi gen muhandisligi laboratoriyasi ochildi. G‘o‘zaning genetik va hujayra muhandisligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar avvaliga laboratoriyaning, keyinchalik 2012-yilda tashkil etilgan Genomika va bioinformatika markazining ham asosiy yo‘nalishiga aylandi. Gen muhandisligi va biotexnologiyaning asosiy vazifasi O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega g‘o‘za navlari va boshqa qimmatli qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi navlarini ishlab chiqishdan iborat. Gen muhandisligi biotexnologiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri hujayradan butun o‘simlik olishdir.

Keyinroq Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo institutida akademik A.Abdukarimov rahbarligida Gen muhandisligi laboratoriyasi, akademik D.Musayev boshchiligida G‘o‘za genetikasi va genkolleksiyasi laboratoriyasi, “Biolog” NDT va sobiq Fitopatologiya instituti negizida Genetika instituti tashkil etildi. Olingan natijalar Genomika va bioinformatika markazi hamda uning negizida Maxsus urug‘chilik xo‘jaligi tashkil etilishiga asos bo‘ldi. Shu tariqa Fanlar akademiyasi tarkibidagi bir qator institutlarni yopish va qayta tashkil etish jarayonida zamonaviy

ilmiy yo‘nalishga ega yangi tuzilma tashkil etildi. O‘simliklar genomikasi, germplazma xususiyatlari, genetik xaritalash, markerlar seleksiyasi, transgenomika, proteomika va bioinformatika bo‘yicha tadqiqotlar mutaxassisi bo‘lgan olim Ibrohim Abdurahmonov Genomika va bioinformatika markaziga rahbarlik qila boshladi.

Markazda “O‘zbekiston g‘o‘za germplazmasi resurslaridan foydalangan holda hosildorlik va tola sifati genlarini molekulyar xaritalash”, “G‘o‘zadagi fitoxromlar va gullash genlarining xarakteristikasi va molekulyar xaritasi”, “Fuzarioz vilt kasalligining miqdoriy belgi gen/lokuslarining molekulyar tavsifi, assotsiatsiyasi va takomillashtirilgan g‘o‘za germplazmasini ishlab chiqish” hamda “G‘o‘za germplazmasining ildiz nematodasi, fusarioz vilt kasalligiga qarshi potensial chidamliligini baholash va nomzod gen markerlarini ishlab chiqish” mavzusidagi qator loyihalar ustida ilmiy izlanish olib borildi. Markaz xodimlari O‘zbekistonda yetishtirilayotgan g‘o‘za navlarining molekulyar genetik pasportini ishlab chiqdi.

Akademik Ibrohim Abdurahmonov Texas universiteti va AQSH Qishloq xo‘jaligi departamentidagi hamkasblari bilan hamkorlikda g‘o‘za genlarini “o‘chirish” (RNK interferensiyasi) texnologiyasini ishlab chiqdi. Ushbu texnologiya yordamida ildiz sistemasi rivojlangan, sifatli, uzun tolali, serhosil va ertapishar g‘o‘za navlari olindi.

Xorijda malaka oshirib kelgan yosh olimlar tomonidan g‘o‘za liniya va navlari daktiloskopiyasi uchun DNK ribosomal operonining o‘zgaruvchan va konservativ uchastkalaridan foydalanish biotexnologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu usul patogen zamburug‘ va o‘simlik mikroorganizmlarini diagnostika qilish uchun joriy etilgan bo‘lib, so‘nggi yillarda bu texnologiya odam va hayvonlardagi xavfli hamda yuqumli kasalliklarning qator patogenlarini ekspress aniqlashda ham samarali qo‘llanmoqda.

Markaz olimlarining g‘o‘za genomini o‘rganish bo‘yicha izlanishlari natijasida jahon amaliyotida birinchi marta 310 ta mikrosatellit markerli panel yaratilib, g‘o‘za genomi bilan genetik tadqiqotlarda keng qo‘llab kelinmoqda. Dunyoda birinchi marta rekombinant genom bloklari yordamida g‘o‘za genini xaritalash nazariyasi fanga taklif qilindi hamda genomdagi rekombinatsiya bloklari hajmining uzunligi baholandi. Markaz xodimlari g‘o‘za genlarini tezkor “assotsiativ xaritalash” usulini ishlab chiqdi. Ushbu usuldan foydalanish tola sifati, kasalliklarga chidamlilik va ertapisharlik belgilari bilan bog‘liq bo‘lgan 1000 dan ortiq yangi gen, marker lokusi va g‘o‘za mikroRNKlarini klonlash imkonini berdi.

Muayyan genni nokaut qilish texnologiyasi va markerga asoslangan seleksiya natijasida qisqa vaqtda g‘o‘zaning yangi “Porloq-1”, “Porloq-2”, “Porloq-3”, “Porloq-4” biotexnologik navlari ishlab chiqildi. Qo‘llangan zamonaviy texnologiyalar natijasida ushbu serhosil va ertapishar navlar

nafaqat uzun tola, balki yuqori texnologik xususiyatlarga ham ega bo‘ldi. “Porloq” navlari 2014-yilda rayonlashtirilgan. Hozir 60 ming gektardan ortiq maydonga ekib kelinmoqda. G‘o‘zada gen nokaut texnologiyasining samaradorligi patentlar bilan himoyalangan va dunyoning 150 dan ortiq mamlakatida tan olingan.

Assotsiativ xaritalash usulidan foydalangan holda Genomika va bioinformatika markazi yosh tadqiqotchilari asosiy tola sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq ko‘plab jihatlarini aniqladi. G‘o‘zaning “Ravnaq-1”, “Ravnaq-2”, “Baraka”, “Tafakkur” va “Saxovat” kabi navlarini ishlab chiqishda markerlarga asoslangan seleksiya dasturi samarali qo‘llandi. DNK marker texnologiyasidan foydalangan holda dunyoda birinchi marta olingan, tola sifati yaxshilangan yangi “Ravnaq-1” va “Ravnaq-2” navlari sinovdan o‘tkazilmoqda.

Bundan tashqari, boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarining oqsil va metabolitlari, dorivor va sanoat o‘simliklari, mikroorganizmlar, hayvonlar va odamlar genomi hamda genetik xilma-xilligi va funksional genlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilyapti. Ushbu tadqiqotlar natijasi asosida qishloq xo‘jaligi ekinlarining turli tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan, zararkunanda va kasalliklarga chidamli yangi liniya va navlari olindi. Ushbu namunalar zamonaviy molekulyar va hujayra muhandisligi, molekulyar markerlar, genom va virtual tanlovga asoslangan bo‘lib, atrof-muhit hamda inson salomatligi uchun xavfsiz.

Markaz olimlari zamonaviy molekulyar genetik va gen muhandisligi texnologiyalaridan foydalangan holda bug‘doy kabi muhim donli ekinlarning nav xilma-xilligini shakllantirishda ham faol ishtirok etmoqda. Bug‘doyning istiqbolli serhosil liniyalari olinishi natijasida hosildorlik 60 foizgacha oshdi. Shuningdek, kartoshkaning hosildorligi yuqori bo‘lgan yangi biotexnologik navini olishga erishildi.

Bu borada uzum va anor kabi mevali ekinlar ham e’tibordan chetda qolmadi. O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklari va ishlab chiqarish korxonalarini sertifikatlangan uzum ko‘chati bilan ta’minlash uchun in vitro texnologiyasi yordamida virusdan xoli, sog‘lom uzum ko‘chatlarini ommaviy ko‘paytirish hamda yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Shu maqsadda uzumning qator istiqbolli xorijiy va mahalliy navlarini ko‘paytirish uchun individual ozuqa muhiti ishlab chiqilgan. Markazda uzum genomini chuqur o‘rganish va danaksiz uzum navlarini olish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda anor iqtisodiy ahamiyatga ega mevali ekin turi. Shu bois, Genomika va bioinformatika markazi yosh olimlari anorning “Qayum anori” va “Qora quyun” istiqbolli navlari ustida ilmiy izlanish olib bormoqda. Bugunga qadar ozuqa muhitining 15 dan ortiq turi sinovdan o‘tkazilib, eng samaralilari tanlab olindi.

O‘zbekiston farmatsevtika sanoatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida dorivor o‘simlik turlari ustida ham ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu sababli klasterlar plantatsiyalarida dorivor o‘simliklarni introduksiya qilish maqsadida mikroklonal ko‘paytirish texnologiyasi asosida qator istiqbolli dorivor o‘simliklar materiali yaratilmoqda. Fundamental va amaliy tadqiqotlar davom etyapti hamda biotexnologik va gen muhandisligi texnologiyalaridan foydalanish asosida mamlakatimizning xom-ashyo, dori-darmon va oziq-ovqat mustaqilligini mustahkamlash uchun muhim yangi innovatsion ishlanmalar paydo bo‘lmoqda.

Shu tariqa markazimizda doimiy ravishda biotexnologiya va gen muhandisligini rivojlantirish yo‘lida yuqori ishtiyoq bilan faoliyat olib borayotgan yosh olimlar safi kengayib bormoqda. Ular erishayotgan yutuqlar nafaqat O‘zbekistonda, balki xorijiy davlatlar amaliyotida ham keng qo‘llanmoqda.

TA’LIM

“FAN BOG‘ING BOG‘BONISIZ, CHAROG‘BONSIZ KO‘NGILGA”

Oliygohda yaratilgan sharoitlar talabalarning ham o‘z iqtidorini yuzaga chiqarishida muhim omil bo‘lmoqda. Jumladan, ayni paytda tahsil olayotgan yoshlar turli xalqaro tanlovlarda, musobaqalarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritmoqda. Shuningdek, innovatsion g‘oyalar, startap loyihalar bo‘yicha o‘tkazilayotgan tadbirlarda ham birinchilar safidan joy olmoqda.

Boshlanishi 1-betda

Kitob, Chiroqchi, Qamashi, Yakkabog‘ va Shahrisabz tuman va shahar aholisi yoshlari uchun ushbu oliygoh filiali kattagina imkoniyatlar eshigini ochdi. Uzoq masofaga qatnab ta’lim olishga sharoiti bo‘lmagan oila vakillari ham o‘z orzularini amalga oshirishi mumkinligidan mamnun holda ta’lim olishga intildi.

— 2018-yil dekabr oyida davlatimiz rahbari Qashqadaryoga tashrifi chog‘ida hudud aholisiga qulaylik yaratish va pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida Shahrisabzda ikkita oliygoh filiallarini ochish taklifini bergan edi, — deydi institut rektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi Jamshid Shonazarov. — Shundan so‘ng tegishli qarorga ko‘ra, Qarshi davlat universiteti Pedagogika instituti tashkil etildi. Oradan bir oz vaqt o‘tib Prezidentimizning 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti negizida Shahrisabz davlat instituti tashkil etildi.

Hozirgi kunda institutimizda sakkiz yarim mingdan ortiq yoshlar ta’lim olmoqda. Xususan, kunduzgi, sirtqi va maxsus sirtqi, kechki bo‘lim, magistratura, doktorantura bo‘limlari ochilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarni bilimli, o‘z kasbining yetuk mutaxassislari bo‘lib yetishishi uchun oliygohimizda yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Shuningdek, talabalarning bir qismi yotoqxona bilan ta’minlangan bo‘lsa, yana bir qismi ijara shartnomalari asosida aholi xonadonlariga joylashtirilgan.

Bundan tashqari, umumiy loyiha qiymati 93 milliard so‘mdan ortiq, bir yarim ming o‘rinli o‘quv binosi hamda besh yuz o‘rinli talabalar yotoqxonasini qurish ishlari boshlab yuborilgan. Shu bilan birga, institutimizga qarashli Kitob tumanidagi sobiq akademik litsey binosini ta’mirlash uchun loyiha hujjatlari tayyorlanmoqda. Tez orada bu inshootimizda ham ishlar boshlanadi.

Yildan-yilga talabalarimiz safi ortib borishi natijasida, albatta, o‘quv xonalari va turar joyga bo‘lgan talab ham oshib boradi. Shu bois, 2024-2025-o‘quv yilida yana ming o‘ringa mo‘ljallangan o‘quv binosi hamda besh yuz nafar talabaga xizmat ko‘rsatadigan yotoqxona majmuasi barpo etiladi.

Talabaning taklifi bilan kutubxona qurildi

Institutda talabalar uchun muhim bo‘lgan axborot-resurs markazi o‘tgan yilga qadar yo‘q edi. Moslashtirilgan ayrim xonalardan yoshlar imkon darajasida foydalanishga harakat qilardi. Ammo muammo ham tezda hal etiladigan bo‘ldi.

2021-yil oktabr oyida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod sifatida Qashqadaryo viloyatidagi saylovchilar bilan uchrashuv o‘tkazgandi. Tadbirda so‘z olgan institut talabasi Marjona Jo‘raqulova o‘zi ta’lim olayotgan Shahrisabz davlat pedagogika institutida yangi, zamonaviy axborot-resurs markazi bunyod etilishini so‘rab murojaat qilgandi. Yosh, tashabbuskor qizning taklifi Prezidentimiz tomonidan ma’qullanib, 2022-yil oktabr oyida institut hududida zamonaviy tipdagi axborot-resurs markazi qurilishiga start berildi.

— Binoning qurilish ishlariga jami to‘rt milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi, — deydi institut kutubxonachisi Maftuna Jabborova. — Markaz uch yuz o‘rinli bo‘lib, bugun to‘liq ishga tushirilgan. Barcha jihozlar hamda o‘quv va badiiy adabiyotlar bilan to‘liq ta’minlangan. Eng asosiysi, axborot-resurs markazimiz raqamlashtirilgan bo‘lib, talabalar uchun ham, biz uchun ham juda qulay. Misol uchun, kutubxonadan talaba yoki o‘qituvchi kitob olib chiqishi bilan eshik oldida avtomatik ro‘yxatga olinadi. Shu sana, vaqti va kitobning nomi monitorda qayd etiladi. Yana kitob qaytarib

olib kelingach, uni ham vaqti bilan yozib qo‘yadi. Bundan tashqari, markazimizda elektron kitoblar olish uchun, dars tayyorlash, kerakli ma’lumotlarni to‘plash uchun internet ishlab turibdi. Shu qatorda boshqa yirik kutubxonalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yganmiz. Agarda bizda mavjud bo‘lmagan kitoblar kerak bo‘ladigan bo‘lsa, hamkorlarga murojaat qilib, shu vaqtning o‘zida onlayn tarzda zarur adabiyotni olishimiz mumkin. Yoshlar uchun kerakli bo‘lgan barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Albatta, bunday zamon talablariga javob bera oladigan maskanga kelib, kitob o‘qishning ham o‘zgacha zavqi bor.

Keyingi paytda yoshlarimiz orasida kitob o‘qishga qiziquvchilar safi ortib bormoqda. Hozirgi kunda kutubxonamiz gavjum. Doimiy ravishda “Zukko kitobxon” tanlovlari, “Zakovat” bellashuvlari tashkil etib kelyapmiz.

“Repetitorsiz o‘qishga kirganman”

Sir emaski, keyingi paytlarda oliygohda o‘qish istagida bo‘lgan yoshlar repetitorga qatnab tayyorgarlik ko‘rishi odat tusiga kirdi. Ammo hech bir repetitorga bormasdan ham talaba bo‘lish mumkinligini ko‘pchilik iqtidorli yigit-qizlar amalda ko‘rsatmoqda.

Shahina Usmonova hozirda institutning 3-bosqichida ta’lim oladi. U oliygohning eng faol, eng tashabbuskor yoshlaridan biri. Shu bois, bu yerda o‘tkazilayotgan har bir tanlov, badiiy kechalarga o‘zi bosh bo‘lishga harakat qiladi. Guruh sardorlarini doim harakatga, intiluvchanlikka chorlab, g‘oliblik sari undaydi. Uning bilimdon va ziyrakligiga ko‘pchilikning havasi keladi.

— Kitob tumanidanman, — deydi Shahina. — Maktabda a’lo baholarga o‘qiganman va shu sabab oltin medal bilan tugatgandim. Ota-onam kitob o‘qishimga, dars tayyorlashimga jiddiy e’tibor qaratib, hamisha bunga sharoit yaratib bergan. Kechalari bilan gohida onam, gohida otam bilan uy vazifalarini bajarardik. Ular biror marta bilim olishimga qarshilik qilmagan. Aksincha, gohida onamga uy yumushlariga qarashib, dars tayyorlashni unutib qo‘ysam, o‘zlari eslatib, nazorat qilib borardi.

Qishloqda yashaganimiz uchun qo‘shimcha o‘qishga repetitor yo‘q edi. Shahar bir oz olislik qilardi. Maktabni tugatish arafasida oliygohda o‘qish istagi juda kuchli edi menda. Ammo uzoq manzilga borib, o‘qish uchun imkoniyat bo‘lmagani bois, orzum amalga oshmay qoladi, degan xavotirda edim. Lekin yashash joyimizga yaqin hududda bu institutning ochilganini eshitib, juda xursand bo‘lganman. Hech ikkilanmasdan shu yerga hujjat topshirdim. Qo‘shimcha o‘qib, tayyorlanmaganim bois, oliygohga o‘qishga kirishimga ko‘pchilik ishonmasdi. Men buni isbotladim. Bugun eng baxtiyor talabaman. Men kabi yoshlarga bu hududda institutni ochib, imkoniyat yaratib bergani uchun Prezidentimizga rahmat.

Kadrlarga ehtiyoj yuqori edi

Viloyatdagi umumta’lim maktablarida o‘qituvchilar yetishmasligi sabab, ba’zi fanlardan darslar o‘tilishi muammoga aylanib qolgandi. Ayrim o‘qituvchilarga mutaxassisligiga yaqin bo‘lgan fanlar bo‘yicha ham bolalarga dars berishga ruxsat berilgandi. Natijada bu holat ta’lim samaradorligiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Bugun esa, bunga barham berilib, bosqichma-bosqich yuqori salohiyatli kadrlar bilan ta’minlanyapti.

— Bundan ancha yillar oldin o‘qituvchilarning maoshi kamligi bois, ko‘pchilik bu kasbni tashlab, boshqa ishga o‘tib ketgandi, — deydi pedagogika fanlari doktori Abduqahhor G‘aniyev. — Maktablarda o‘qituvchi yetishmay qoldi. Bu holat ta’siri ancha vaqtgacha sezilib turdi. Shu bois, yuqori hudud sanalgan Shahrisabz, Kitob, Chiroqchi va Yakkabog‘ tumanlarida bu muammoni bartaraf etishning yagona yo‘li yangi institut ochish edi. O‘zim shu yerdagi sobiq akademik litseyda direktor bo‘lib ishlaganman. Bu ta’lim muassasasi tugatilgach, o‘rniga oliygoh tashkil etish harakatini boshladik. Tashabbusimizni davlatimiz rahbari ham ma’qullab, dastlab filial sifatida ochishga ruxsat berdi. Keyinchalik esa alohida institut maqomi berildi.

Oliygohda yaratilgan sharoitlar talabalarning ham o‘z iqtidorini yuzaga chiqarishida muhim omil bo‘lmoqda. Jumladan, ayni paytda tahsil olayotgan yoshlar turli xalqaro tanlovlarda, musobaqalarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritmoqda. Shuningdek, innovatsion g‘oyalar, startap loyihalar bo‘yicha o‘tkazilayotgan tadbirlarda ham birinchilar safidan joy olmoqda.

Demak, qulayliklardan unumli foydalanib, bilimini tobora boyitib borayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar ertangi kunda umumta’lim maktablarida yosh avlodni yuksaklik sari yetaklashi shubhasiz. Zero, shoir ta’riflaganidek bo‘lajak “fan bog‘bonlari” o‘z ta’lim-tarbiyasi ila yosh avlod ko‘nglini charog‘bon etaveradi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

KO‘NGIL OBOD BO‘LSA, VATAN HAM OBOD

YANGILIKKA CHANQOQ, MARD VA *tanti el orzusi*

Salim ASHUROV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist

Yaqinda Surxondaryo viloyatida Madaniyat vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi hamkorligida bo‘lib o‘tgan “Yangi hayot uchun – yangi O‘zbekiston uchun!” ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarida ishtirok etib, bugungi kunda Surxon ahlining hayotdan rozi ekaniga, mard va tanti elning ertangi kunini bugundan-da obod etish yo‘lida barcha – yoshu qari halol va astoydil mehnat qilayotganiga ishonch hosil qildik.

Viloyat tumanlarida, mahallalar, ta’lim muassasalari, mehnat korxonalari va boshqa tashkilotlarda aholining barcha qatlamlari ishtirokida bo‘lib o‘tgan tadbirlarda poytaxtdan borgan taniqli shoir va yozuvchilar, olimlar, el suygan kino va teatr aktyorlari, xushovoz xonandalar ishtirok etdi.

Ana shunday tadbirlardan biri Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filialida bo‘lib o‘tdi. Filial vohada yangitdan tashkil etilgan nufuzli oliy o‘quv yurtlaridan biri. Unda uch ming talaba zamonaviy sharoitlarda tahsil oladi. Jumladan, Hindistondan ikki yuz nafar, qo‘shni mamlakatlardan ham ko‘plab talabalar kelib, shu ta’lim maskanida bilim olmoqda. Aytish lozimki, Surxondaryoda avval faqat bitta oliy o‘quv yurti mavjud bo‘lgan. Bugun yettita shunday ta’lim maskani o‘qishni istagan, kelajagini bilim bilan qurmoqchi bo‘lgan yoshlarni o‘z bag‘riga chorlab turibdi.

— Sizlarning nurli chehrangizga boqib, siymongizda ilmga, yangilikka chanqoq, farovon va yorug‘ kelajakni bunyod etish yo‘lida har qanday mashaqqatlarni iroda va aql bilan yengib o‘ta oladigan vatanparvar, millat ishiga sadoqatli Surxondaryo yoshlarini ko‘ryapman, — dedi talabalar bilan uchrashuvda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, taniqli shoir Eshqobil Shukur. — Men Surxon zaminida tug‘ilib o‘sganman, shu bois, bu yerdan yaxshi xabar borsa, eldoshlarim bilan birga xursand bo‘laman. Yomon xabar bo‘lsa, hammadan avval o‘ksinaman... Zamonaviy tibbiyotning asoschisi, barcha tibbiyotchilarning eng birinchi ustozi ulug‘ ajdodimiz Abu Ali ibn Sino tibbiyot ishi bilan shug‘ullanish va tibbiy tadqiqotlar olib borish bilan birga badiiy, falsafiy asarlar ham bitgan. Siz ham ko‘proq badiiy kitoblar o‘qing. Eng yaxshi tibbiyotchilar yaxshi adabiyotchi ham bo‘lgan, bu bejiz emas...

Shoir gulduroq ovozda samimiy she’r o‘qiydi. O‘qiyveradi. Bu she’rlar erta-indin millatning dardiga darmon bo‘lamiz, deb maydonga bel bog‘lab chiqadigan bo‘lajak tibbiyotchilarning qalbida aks sado beradi. Zero, haqiqiy vatanparvarlik yolg‘ondan ko‘krakka urish, soxta shiorlarni hayqirish bilan emas, o‘zi o‘qiyotgan yoki ishlayotgan joyda sidqidildan o‘qish, ishlash bilan isbotlanadi. Chin vatanparvar yoshlar vatan haqida ayyuhannos solib baqirmaydi, ko‘p jafolarni boshdan o‘tkazgan Vatan taraqqiyoti yo‘lida jimgina, halol mehnat qiladi. Shu vatanparvarlik ishi bo‘ladi.

Viloyatning izchil rivojlanayotgani haqida gapirganda, ta’lim sohasiga alohida to‘xtalish lozim, deb o‘ylaymiz. Mohir pedagog va tajribali rahbar Ixtiyor Ziyodov direktorlik qilayotgan Termiz shahridagi 26-maktabni davlatimiz tomonidan sohaga katta e’tibor qaratilayotgan, barcha zamonaviy sharoitlar muhayyo etilgan namunali maktablardan biri, deb aytish mumkin. Mazkur maktabda ingliz tili fanidan hindistonlik o‘qituvchi doktor Santosh Kumari saboq beradi. U avval Yevropadagi nufuzli universitetlarda talabalarni o‘qitgan.

— Men dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida pedagoglik faoliyati bilan shug‘ullanganman. Bu borada muayyan tajribamga tayanib aytishim mumkinki, o‘zbek yoshlari kabi ilmga chanqoq, ingliz tilini o‘rganish va umuman,

chuqur bilim olish uchun astoydil intiladigan yoshlarni kam ko‘rganman... Hamisha kattaga — hurmatda, kichikka — izzatda bo‘lish o‘zbek xalqining ibratli fazilatlaridan biri, deb bilaman.

— Prezidentimiz Singapurga tashrifi chog‘ida o‘sha yerda o‘qib, ishlayotgan iqtidorli yoshlar bilan uchrashgan edilar. Ularning safida maktabimizning sobiq o‘quvchisi Sayqal Allayorov ham bor edi, — deydi faxr bilan maktab direktori Ixtiyor Ziyodov.

Maktablar ko‘p, lekin har birining alohida xususiyati bo‘ladi. Masalan, Sherobod tumanidagi 38-maktabda alohida ijod sinfxonasi va muzey tashkil etilgan. Ijod sinfxonasida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus bo‘yicha yetti turdagi musiqa asbobi, o‘quvchilarning tasviriy san’at bilan shug‘ullanishlari uchun zarur bo‘ladigan rassomlik ashyolari, badiiy ijodga qiziqadigan o‘quvchi yoshlarni birlashtiradigan “Parvoz” adabiy to‘garagi, to‘garak a’zolari foydalanishlari uchun mo‘jaz, ammo boy kutubxona tashkil etilgan.

— Havaskor ijodkor o‘quvchilarning dastlabki mashqlari tumanimizning “Buyuk yurt” gazetasi sahifalarida e’lon qilinadi, — deydi shu gazeta bosh muharriri Otabek Berdiqulov. — Jurnalistikaga qiziqadigan o‘quvchi yoshlarni gazetamizga muxbir qilib olganmiz. Gazetaning ayrim sonlari o‘quvchi yoshlarning faol ishtirokida chop etiladi. Ular turli janrlarda materiallar tayyorlab, soha sirlarini qunt bilan o‘rganmoqda.

Rostini aytganda, ushbu maktabni iqtidorli yoshlar maskani, desak yanglishmaymiz. Bu yerda o‘ndan ortiq o‘quvchilarning she’rlari, hikoyalari kitob holida nashr etilgan. Yana tuman, viloyat, respublika miqyosida o‘tkaziladigan fan olimpiadalarida ham o‘quvchilar faol ishtirok etadi.

Maktabda bir oz sodda bo‘lsa-da, o‘lkashunoslik muzeyi tashkil etilgan. Uni qiziqib ko‘zdan kechirar ekanmiz, vatanparvarlik o‘z o‘lkasini o‘rganishdan boshlanadi, degan hikmat naqadar to‘g‘ri ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Maktab muzeyiga qo‘yilgan o‘tov, kashta, parcha, omoch, yorg‘uchoq (qo‘l toshtegirmoni) va boshqa har xil sopol buyumlarni o‘quvchi yoshlarning tafakkuri suv ichadigan buloqlar, deb atash mumkin.

Sherobod tumani “Mahalla markazi”da tuman xotin-qizlari ishtirokida “Mahallada duv-duv gap” tadbiri bo‘lib o‘tdi. Hazil aralash shunday nomlangan tadbirda falsafa fanlari doktori, professor Jamila Shermuhammedova, O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirova qatnashdi. Qalbi qaynoq olima Jamila Shermuhammedova yon-atrofda jam bo‘lgan ayollardan xayollaridan o‘tayotgan bir so‘zni aytishni so‘radi. O‘zbekning tortinchoq ayollari “Tinchlik”, “Xotirjamlik”, “Taraqqiyot”, “Ahillik”, “Farzand”, “Oila”, “Baxt”, “Vatanni sevish” kabi so‘zlarni aytdi. Xalqimizning qalbini, azaliy orzu-niyatini aks ettirgan, har qanday urush va ziddiyatlarga, notinchlik va beqarorlikka qarshi qaratilgan, davrimiz va zamonimizning eng o‘tkir, dolzarb va g‘oyat chuqur mazmunli so‘zlari — ogohlik bongi kabi yangragan ushbu so‘zlar Prezidentimizning Yaqin Sharqda keskinlashayotgan voqealarga doir bildirgan munosabatiga naqadar hamohang!

Tumandagi 70-maktabda “Men askar bo‘laman!” shiori ostida maktablararo harbiy vatanparvarlik mashg‘uloti o‘tkazildi. Harbiy xizmatchilar tuman maktablaridan musobaqaga kelgan yoshlarga harbiy ishning sir-asroridan saboq berdi. Yangiliklarga boy va qiziqarli o‘tgan mashg‘ulot yosh avlod qalbida “Men Vatan himoyachisi bo‘laman!” degan olijanob tuyg‘uni uyg‘ota olgani bilan muhim ahamiyat kasb etdi.

Sho‘rchi tumani kutubxona-resurs markazida o‘tgan tadbirda O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirovadan:

— Bolalarimiz tobora ijtimoiy tarmoqlarga, internetga, mobil telefon va boshqa raqamli qurilmalarga tobe bo‘lib bormoqda. Ularni kitobga qaytarish uchun nima qilishimiz kerak? — deb so‘rashdi.

— Siz o‘zingiz uyda kitob o‘qimasangiz farzandingiz ham o‘qimaydi. Uyda har kuni kitobni ochib, o‘qigandek bo‘lib, sahifalarga ko‘z yugurtirib o‘tiring. Bolalaringiz bir-ikki-uch-to‘rt marta ko‘rsin. Har kuni shu manzarani ko‘raversa, albatta, kitobga o‘rganadi, bu nima ekan, bunda nima yozilgan ekan, nega har kuni ota-onam buni o‘qiydi, deb qiziqadi va kitobni qo‘liga oladi. Men shunday qilaman, kitob o‘qib beraman, — deb javob berdi Gavhar opa.

Darhaqiqat, bola quruq pand-nasihatdan tez beziydi. Bir donishmand aytgan ekan: “Bolani tarbiyalashdan avval o‘zingizni tarbiyalang!”

Angor tumanidagi Yuqori Tallimaron mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan 14-maktabda mahalla nuroniylari, yosh ijodkorlar, maktab jamoasi, faol fuqarolar ishtirokida “Yangi hayot uchun — Yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida o‘tgan ma’naviy-ma’rifiy tadbir yakunida Yozuvchilar uyushmasi Surxondaryo viloyat bo‘limi rahbari, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi, taniqli shoir Mengnor Ollomurod O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan nashr etilgan kitoblarni maktab kutubxonasiga sovg‘a qildi. Tadbirda faol ishtirok etgan yosh ijodkorlarga Yozuvchilar uyushmasining sovg‘alari topshirildi.

Surxondaryo viloyatida o‘tgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, aholining turli qatlamlari bilan bo‘lgan muloqotlar, ijodiy uchrashuvlarda qishloq va mahallalarda odamlarimiz olimlar, shoir-yozuvchilar, san’atkorlar bilan yuzma-yuz uchrashish va suhbatlashishni sog‘ingani ayon bo‘ldi. Yurtdoshlarimizning ko‘ngli mehnat bilan, adabiyot va san’atning, ilm-fanning nur-ziyosi bilan obod bo‘lmoqda. Zero, ko‘ngil obod bo‘lsa, Vatan ham oboddir.

MULOHAZA

BIR PIYOLA CHOY
va siyohi qurimagan nashrlar tafti...

Munavvara USMONOVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

Aslida, ma’naviyatning zamoni, zamonaviyligi bo‘lmaydi. U hamisha davriga ruhdosh bo‘ladi. Zamon chig‘iriqlarida toblanadi va yoki shikasta holga tushadi.

Yoshligimiz mafkura yolg‘onlar bilan ko‘pchigan davrlarga to‘g‘ri keldi. Ammo “ziyo” degan umumiy nomi bo‘lgan gazeta, jurnal, kitoblarda baribir bir tola bo‘lsa-da, nur bo‘lardi va biz o‘sha nurga talpinardik. Erta bahorda ipak qurti boqib, kunu tun tinmay mehnat qilib, yelkamizga oftob tegishi bilan dalaga chopardik. Yerga chigit qadashdan boshlangan qiyin zahmatlar qor yog‘ib, qish chillasi yaqinlashganida poyoniga yetardi. Uy devoriga omonatgina ilib qo‘yilgan radiodagi eshittirishlar axborot bo‘ladimi, ertak aytiladimi, jon qulog‘imiz bilan tinglardik. Ayniqsa, oilaviy ko‘sak chuvib o‘tirgan payt radio eshitish maroqli edi. Shuncha ishdan ortib, gazeta ham varaqlardik. Chunki haftaning muayyan kunlari siyosiy o‘qish darslari bo‘lar va biz navbati bilan davriy matbuot nashrlaridagi maqolalarni imkonimiz qadar sharhlardik.

Maktabimizdagi “Chayon”, “Qalampir” devoriy gazetalarida nomimiz qoralanmasligi uchun o‘z vaqtida darsga kelib, yomon baho olmaslikka harakat qilardik. Ehtimol, matbuotni bu tarzda muntazam kuzatish mafkuramizning shakllanishida u qadar katta ahamiyat kasb etmagandir, lekin o‘sha paytlarda yosh yuragimizda yurtga daxldorlik tuyg‘usi uyg‘ongani rost. O‘qituvchimiz: “Yurtimizda bo‘ladigan yangiliklar, yaxshiliklar bilan kun boshlansa, hammamiz uyg‘onamiz, uyg‘oq eshitinglar”, deb tinglashga, o‘qishga undagani hanuz xotiramda takrorlanib turadi. Bugun ham zamon bilan hamnafas yashash, yuksalish yo‘llarini tahlil qilish, el-yurt dard-u quvonchiga yaqinroq kelish imkonini beruvchi yo‘lchiroq — gazeta, jurnallarimiz bor, ammo bugunning o‘quvchilari boshqa...

Biz qayerda, qay holatda bo‘lsak ham qo‘limizga tushgan gazeta yo jurnalni o‘qishga oshiqardik. Hayotimda mutolaaga oid ko‘p voqealar bo‘lgan.

O‘shanda may oyi edi. Umr yo‘ldoshim ikkimiz mehnat ta’tiliga chiqdik. Bir kuni otamiz:

— Bolalarim, ta’til paytida Tojikistonga borib kelinglar. Bilasizlar, otam rahmatli badarg‘a bo‘lib yurtdan ketganda, o‘sha tuproqlarga borib qo‘nim topgan ekan. Qondosh ukalarim, singillarim bor. Bobongizning xoki ham o‘sha yerda. Men-ku, ko‘p bordim. Oilaning katta farzandlari bo‘lib sizlar bordi-keldini yo‘lga qo‘ysangiz, bizdan keyin ham qarindoshlik rishtalari uzilmaydi, — dedi.

Sovg‘a-salomimizni olib, duo bilan yo‘lga chiqdik. Bobomiz yashab o‘tgan hovlilarida qo‘nim topdik. Jigarlarimiz bizni ko‘rib, juda xursand bo‘ldi. Har kunimiz bir amaki yo ammamizning uyiga mehmonga borish bilan o‘tardi. Shunday kunlarning birida do‘kondan nonushtaga shirinlik keltirishdi. O‘sha payt qo‘limga tushib qolgan Tojikiston xotin-qizlari nashri “Firo‘za” jurnalining mutolaasiga tushdim. Ovqatlanishga shoshilmadim. Nonushta tugab, amakimiz yo‘lboshchiligida Hisor tomonlarga sayrga otlandik. Yo‘l yursak ham mo‘l yurdik. Quchog‘imda uxlab qolgan (o‘shanda uch yoshda edi) o‘g‘lim birdan ko‘ngli behuzur bo‘la boshladi. Bir ozdan

keyin umr yo‘ldoshim, keyin amakimiz... Tuman markazidagi tez yordam bo‘limiga arang yetib bordik. Bolamning ahvoli og‘irlashdi. Adirliklar orasiga joylashgan ichki kasalliklar shifoxonasiga borganimizda bolam ham, otasi ham hushsiz edi. Mezbonimizning sog‘lig‘i bir oz yaxshilandimi, shaharga dori-darmon izlab ketdi. Biz bir-birimizning tilimizni tushunmasdik. Bir hamshira rus tilini bilgani uchun holatni menga tushuntirdi. O‘g‘ilchamning ahvoli o‘ta og‘irligi, zaharlanish qonga o‘tib ketganidan issig‘i sira tushmayotganini aytdi. Yer changallab dooood deganim bilan meni hech kim eshitmasdi. Yarim tun, yo bolamni ko‘rishga ruxsat yo‘q, yo xojamni. Ikki o‘t, ikki yo‘l, ikki yurt orasida holi abgor edim. Amakimiz ham kechikdi. (U paytda mobil telefonlar yo‘q edi). Keyin bilsam, dori izlab shaharga borganida, oilasidagilarning hammasi, qo‘shni bolagacha kasalxonaga tushib qolganini eshitgan, ular bilan andarmon bo‘lib qolgan ekan. Yarim tun. Chigirtkalar chirillaydi, itlar uvillaydi... Men esa o‘zimda emasman. Hech kim, hech narsa xayolimda yo‘q. Faqat shu kasalxonaning chirog‘i yoniq turgan jonlantirish xonasida, deraza ortida bolam ajal bilan olishib yotibdi. Shuni bilaman, u meni chaqirsa ham kiritishmaydi. Ayajon, deya olsa bo‘ldi. Hamma odam bu so‘zni tushunadi. Shunda men yugurib borib uni bag‘rimga bosaman. Umr yo‘ldoshim esa katta kasalxonaning boshqa bir joyida... Bolam qani, ayolim qayerda, deyishga ham majoli yo‘q yotardi. O‘sha nur tushgan joyga termilib tik turibman. Eshikning kichkina darchasidan hamshira ko‘rinsa, yuguraman: “Ishqilib bolang... demasin-da!”. Tongga yaqin bir ayol yonimga keldi. Qora atlasdan burmali ko‘ylak kiygan. Yenglari uzun, qosh-ko‘zlari chiroyli... Menga qarab nimadir dedi. Tushunmadim. Tushunmadim-u, uning yelkasiga boshimni qo‘yib, to‘yib-to‘yib yig‘ladim. “Bolam... bolam”, derdim yuqorini ko‘rsatib. U menga qora sumkaga solingan termosdan choy quyib, bir burda non tutdi. Yemayman ishorasini qildim. Meni yoniga o‘tqazib, nonni burdalab og‘zimga sola boshladi. Ora-sira boshimni silab, ko‘zimning yoshini ham artib qo‘yardi. Sumkasining bir chetidan esa bir juft gazeta va “Firo‘za” jurnali muqovasi ko‘rinib turardi. Ziyoli va mehribon bu ayolning so‘zlaridan qalbim qanchalar taskin topganini, o‘rtamizda qandaydir umumiy rishta borligini his qildim. Keyin o‘sha ayol darcha yoniga borib taqillatdi. Ichkariga kirib ketdi. Bir oz fursatdan keyin hamshira qiz meni qo‘limdan tutib ichkariga yetakladi. Bir ko‘nglim “yugur, bolangni bag‘ringga bos”, desa, bir ko‘nglim “hozir kirsang, yolg‘izingni oqqa o‘rab-chirmab qo‘lingga tutishadi”, deb qalbimni dog‘ qilardi. Titrab-qaqshab kirdim. Bolamning rangi oppoq, ammo nafas olib yotardi. Qurbim yetmay yiqildim...

O‘sha issiq kaft yana boshimni siladi. Ko‘zimni ochsam, oq xalat, oq qalpoqda o‘sha chiroyli ayol tashvishli qarab turardi. U ayol emas, farishtaga o‘xshardi. Shifokor ekan. Tunda yordamga chaqirtirishgan bo‘lsa kerak. Bir xonadondagi hamma odam ovqatdan zaharlanib yolg‘iz men sog‘ qolganim sababini so‘rashdi. Til bilgan hamshiraga “Avvalo, Alloh saqladi, keyin esa meni “Firo‘za”ni mutolaa qilganim yordam berdi”, dedim. Jurnal o‘qib o‘tirib, nonushtaga kechikib borganimni, shirinlik ham, taom ham yemaganimni tushuntirdim. Gaplarimni tinglayotib, ish stoli ustida turgan gazeta va jurnal taxlamlariga qarab-qarab qo‘ydi. Javonga terilgan kitoblar ham bir-biridan noyob edi. Ikki-uch kun deganda bolam ko‘zini ochdi. Otasi ham oyoqqa turdi. “Uyga olib ketamiz”, dedim. Doktorlar ruxsat bermadi. Haligi ayol bo‘lim rahbari, ismi Lobar ekan. Tunda tilxat yozdim, rahmat yozdim, duo yozdim...

Ulg‘aydik. Qancha yo‘llar bosdik, qancha yaxshi-yomon kunlar boshimizdan o‘tdi. Ko‘p odamlar yiqilganda suyadim, ko‘p ayollarning ko‘zidan oqqan yoshlariga kaftimni tutdim, boshini siladim. Baribir, o‘sha kun, o‘sha tun, o‘sha yurtda titrab turgan vujudimni bag‘riga mahkam bosgan, qo‘llari bilan non yedirib, issiq choy ichirgan o‘sha ziyoli, gazetxon shifokor ayolning savobini topa olmagandekman. Uning yaxshiligi osmonlarga teng edi.

Yuz yoshni qarshi olayotgan “Saodat” jurnaliga ishga kelganimga ham ancha bo‘ldi. Bir maqola jurnalist qalamida sayqallanib, bosma nashrlar sahifalarida chop etilish huquqiga erishish uchun qalam ahli qanchalar zahmat chekishi, yo‘l yurishi, yurt kezishi, ko‘ngillar devoriga bo‘ylab, undan bir yaxshi so‘z ilib olishi, keyin yana ustozlar qo‘lidan o‘tib nashrga tayyorlanishi — hamma-hammasining ortida nina bilan quduq qazigandek katta mehnat bor. Ammo ko‘p vaqtimiz ijtimoiy tarmoqlar orqali berilayotgan, tasdig‘ini topmaydigan ayrim ma’lumotlarga qiziqish bilan boy berilayotgani, mehr-oqibat, hatto dasturxon boshidagi qadriyatlarimizdan bir qadar uzoqlashib ketayotganimiz tashvishlidir. Baribir yozamiz, yozyapmiz. Hozir ham yurtdoshlarimiz yuragiga kirib, tilagiga qo‘l ochishga shay turibmiz.

Xorijdagi vatandoshlarimiz bilan suhbatlashgan chog‘larimizda ular ayni paytda ham nonushtaga bir finjon qahva bilan siyohi hali qurimagan yangi gazeta o‘qishga odatlanishganini eshitib xursand bo‘lib ketaman. Qaniydi biz, o‘zbek ayollari ham tongda bir piyola choy ichishga shaylanganimizda qo‘limizga biror gazeta yoki jurnalni olib varaqlashni odat qilganimizni aytib zavqlansak... Hech bo‘lmasa, ana shu nashrlarning elektron variantini kuzatishga odatlansak, qo‘llab-quvvatlasak...

Yaqinda Kumushoy degan shoira singlim bilan odamlar gazeta va jurnal o‘qimay qo‘ygani haqida suhbatlashib qoldik. U Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 70-maktabda ijodiy targ‘ibotchi bo‘lib bir muddat faoliyat yuritibdi. Shaharning qoq markazidagi maktab. Ilk borgan kunidayoq maktabdagi ba’zi jihatlar uni hayron qoldirgan. Ijodiy to‘garak saboqlari belgilangan kuni vaqtidan ancha oldin boribdi. Maktab eshigidan kirishda katta zal bor ekan. “O‘sha yerda navbatchi o‘qituvchi bilan suhbatlashib o‘tirdim, — deydi shoira qiz. — Qarasam, shu zalga gazeta uchun peshtaxta qilingan. Har yili juda ko‘p gazetalarga obuna bo‘lisharkan. Eshikdan kirishda har bir gazetaning yangi sonlari qo‘yib qo‘yilarkan. Kimdir olib o‘qisa, yana qaytib joyiga qo‘yib ketarkan. Hatto bu jarayon bilan shug‘ullanish uchun alohida kutubxonachi xodim biriktirilgan ekan. Gazetaning eski sonlari taxlam qilib yig‘ilar, so‘nggi bir haftalik gazetalar o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida aylanib yurarkan. “Odamlar gazeta o‘qimay qo‘ydi”, “Gazeta kimga kerak” deb yurganlar ko‘p. Odamlar gazeta o‘qiyotganiga o‘zim guvoh bo‘ldim. Shartta rasmga oldim. Bu holat meni rosa quvontirdi.”

Ma’naviyat jarchisi bo‘lgan bosma nashrlar nechog‘liq ahamiyatli ekanini davrimizning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Zotan, bugungi tezkor zamonda hayotimizga internet, telefon, turli yot g‘oyalar, buzg‘unchi mafkuralar soya sola boshladi, dunyoda manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Ushbu illatlarga qarshi tura olish, faqat qarshi turish emas, kurashish, himoyalanish ruhini kuchaytirish uchun bugun xonadonlarimizga gazeta va jurnallar kirib borishi ma’naviy ehtiyojdir. Ezgulik yo‘lida barchamiz yelkadosh bo‘laylik, azizlar...

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DUK

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1146.
43313 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05